

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 37.018.1

SUYAROVA GULMIRA SIRLIBOYEVNA

**OILAVIY ZIDDIYATLAR VA OILA A‘ZOLARI
O‘RTASIDAGI O‘ZARO MULOQOT MADANIYATI**

5A 140804 – Ijtimoiy pedagogika

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.
«Pedagogika» kafedrasini mudiri
prof. Hasanova K. _____

Ilmiy rahbar:

Prof. Shodiyev N. _____

« _____ » _____ 2012 y

M.O‘.

Samarqand – 2012

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I. Bob. Oilaviy ziddiyatlar va oila a'zolari o'rtasida o'zaro muloqot madaniyati	
1.1-§. Mustahkam o'zbek oilasini tarkib toptirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida.....	8
1.2-§. Islom va Movarounnaxrlik buyuk mutafakkirlar merosida oilaviy munosabatlar masalalari.....	21
1.3-§. Oila va oilaviy munosabatlarni ilmiy-tadqiq qilishning hozirgi holati.....	36
II. Bob Oilada sog'lom ma'naviy, ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish omillari	
2.1-§. Oila a'zolari o'rtasida munosabatlar jarayonini ma'naviy yuksaltirishning moddiy, ma'naviy psixologik, gigiyenik omillar, qadriyatlar.....	44
2.2-§. Tajriba-sinov natijalari bob bo'yicha xulosa.....	57
Xulosa.....	63
Adabiyotlar ro'yxati.....	65

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqil davlatimizning asosiy xujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Asosiy Qonun), "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da, "Oila kodeksi"da oilani mustahkamlash, barkamol avlodni tarbiyalash masalalari aks yettirilgan.

O'zbekiston hukumati va yurtboshimiz I.A. Karimovning istiqlol yillarida oila muammolariga hamda yosh avlodni ma'nan yetuk va jismoniy barkamol etib tarbiyalashga dahldor Farmon va Qarorlar qabul qildilar. Ular jumlasiga "Ayollar yili", "Sog'lom avlod yili", "Onalar va bolalar yili", "Qariyalarni qadrlash yili", "Obod mahalla yili", "Mehr-muruvvat yili", "Sihat-salomatlik yili" va boshqalarni kiritish mumkin. 2012 yilni O'zbekiston Respublikasida "Mustahkam oila yili", deb e'lon qilinishi munosabati bilan Prezident I.A. Karimovning "Mustahkam oila yili" davlat dasturi to'g'risidagi Qarorida "Jamiyatimizning asosi bo'lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish ..." ga doir aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksi amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Prezident Islom Karimov tomonidan mustaqil respublikamiz qomusini (Asosiy Qonun)ni qabul qilingan kunning 5 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda 1998 – yilning "Oila yili", deb e'lon etilganiga ham 14 yildan oshdi. O'tgan davr mobaynida oila institutini rivojlantirish va takomillashtirishga e'tibor kuchayganligini, uning ta'lim hamda tarbiya masalalari bilan o'zaro amaliy hamjixatligi, hamkorligi mustahkamlanganligini yosh oilalarga g'amxo'rlik qilish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish yaxshilanganligini ta'kidlash joizdir.

Muammoni o'rganilganlik darajasi: Oilada muhitni barkamol avlod va komil insonni tarbiyalash muammosi turkiy halqlarning mushtarak yodgorligi "Avesto", "Urxun Enasoy bitiklari"da, shuningdek Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojibdan tortib hozirgi zamon pedagoglarining o'ziga xos fikr mulohazalar bildirilgani diqqatga sazovordir.

Kaykovus, Sa'diy Sheroziy, Jomiy, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarimizning ilmiy-nazariy asarlarida oila munosabatlaridagi tarbiya tarixiylik va vorisiylik nuqta'iy nazaridan bayon etilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Oila, oilaviy munosabatlar muammosi bilan respublikamiz, MDX mamlakatlari hamda xorijiy mamlakatlari olimlari shug'ullanib kelmoqdalar. A.K. Munavvarov "Oila pedagogikasi", Sharipova D.J, Sodiqov. K. "Oilaviy hayot bo'sag'asida", Xasanboyeva O. va boshqalar "Oila pedagogikasi", Musurmonova O. "Oila ma'naviyati-milliy g'urur", M.X. Xolmatova "Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi," M. Inomova « Oilaning turmush tarzi, er-xotin va farzandlar munosabati, ziddiyatlari masalalari» bo'yicha psixolog olimlar ham shug'ullanib kelmoqdalar.

Niyozmetova G. "O'zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy psixologik xususiyatlari ". G'.B. Shoumarov "Oila psixologiyasi", Karimova V. "Oila psixologiyasi", Najmiddinova U.K. "Ma'naviy meros va komil inson tarbiyasi", Yusupov E. "Oilaning ma'naviy asoslari", Maxmudov M. "Oila ma'naviyati", Azarov A. "Oila pedagogikasi", Anzarg L. "Bolalar va oilaviy nizolar".

Tadqiqotning maqsadi. O'zbek oilalarida ota-ona-farzandlar o'rtasida sodir bo'ladigan nizolarning turli jihatlarini ochib berish, sog'lom muhitning omillarini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti: O'zbek oilalarida er-xotin farzandlar o'rtasidagi nizolar jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: ota-ona-farzandlar o'rtasida sog'lom muhit yaratishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari.

Yuqorida bayon qilinganlarga asosanib,

Tadqiqotning vazifalarni quydagicha belgilaymiz:

- oila a'zolari o'rtasidagi nizolarni oldini olishning moddiy, ma'anviy, psixologik omillarini namoyon qilish;
- oilaviy nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablarni o'rganish va baholash;
- Islom va Movarounnaxrlik mutafakkirlarning oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirish bo'yicha qarashlarini tahlil qilish;
- ota-ona-farzandlar orasida vujudga keladigan nizolarni bartaraf etishga qaratilgan xorijiy MDX va o'zbek olimlarining sa'y-harakatlarini o'rganish;
- er-xotin va farzandlar o'rtasidagi nizolarni mahalla, keng jamoachilik asosida oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotimiz mantig'i O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (Asosiy Qonun), «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da, Respublika hukumati va Prezident tomonidan qabul qilingan Farmon va Qarorlarda aks ettirilgan jamiyatning oila institutiga bergan ijtimoiy byurtmasi oilada kattalar va farzandlar o'rtasida sog'lom muhitning ma'naviy, ruhiy, ijtimoiy, iqtisodiy jihatlarini yaratish asos qilib olishni taqozo etadi.

Tadqiqotimizning zarur metodologik asoslarini ta'minlash uchun mavzuga oid O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qarorlari, Prezident asarlari, nutqlari hamda ulug' mutafakkirlarimizning asarlari hamda pedagogika-psixologiya, ijtimoiy-iqtisodiy adabiyotlar o'rganildi.

Shuningdek, tadqiqotimizda shahar va qishloqlarda istiqomat qilayotgan oilalarda sodir bo'layotgan turli-tuman nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar o'rganildi.

Shahar va qishloqlrda yashovchi oilalar bilan o'tkazilgan tajriba sinov ishlari oilaviy nizolarning mavjud holatini o'rganishga qaratildi.

Shuningdek, tadqiqotda savol-javob, anketa-so'rovnoma metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. (Asosiy Qonun), "Oila kodeksi" "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Davlat dasturlari, Prezident I.A. Karimovning asarlari, ma’ruzalari , buyuk mutafakkirlarning oila tarbiyasi, madaniyati axloq-odobiga doir g’oyalari, qarashlari, xorijiy davlatlar olimlarining ushbu soha bo’yicha kitoblari, Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi ma’suliyatlari magistrlilik dissertatsiyasining asosini tashkil qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

– oilalarda sodir bo’ladigan nizo va ajrimlar tahlili asosida «Mustahkam oila», ijtimoiy-pe6dagogik tushuncha sifatida ilmiy muloqotga kiritildi:

– mazkur tushuncha mamlakatimizda kuchli ijtimoiy siyosat tufayli oldin amalga oshirilgan «Oila yili» «Ayollar yili», «Sog’lom avlod yili», «Onalar va bolalar yili», «Qariyalar va qadrlash yili», «Obod mahalla yili», «Mehr-muruvvat yili», «Sihat-salomatlik yili», «Homiylar va shifokorlar yili», «Ijtimoiy himoya yili» kabilarning mantiqiy davomi ekanligi ko’rsatildi;

– mustahkam oilani yuksaltirishning moddiy, ma’naviy, psixologik, gigiyenik, tibbiy omillari yoritildi;

– boy faktik materiallar asosida er-xotin, ota-ona-farzandlar o’rtasida sodir bo’ladigan nikoh ajrimlari, turli-tuman nizolar, ziddiyatlarni oldini olishda oilaviy munosabatlar madaniyatini yuksaltirishning muhimligi isbotlab berildi:

– shahar va qishloq oilalarida tajriba-sinov ishlari ota-onalarning farzandlariga o’z fikrlarini gapirib olish imkoniyatlarini hamda ularga o’zaro tenglik huquqlarini berishi, bolalarni faolligini rag’batlantirish, ular bilan do’stona munosabatlar o’rnatishni (yoki ular bilan muloqot qilishdan qochishi) kabi holatlar aniqlanib, mazkur holatlarning oilaviy nizo va ziddiyatlarning oldini olishga ijobiy ta’siri o’rganildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati: Jamiyatda amalga oshirilayotgan ma’naviy-axloqiy isloxotlar jarayonida o’zbek oilalarning o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, oilaviy ziddiyatlarni bartaraf etishda oilaviy tarbiyaning o’ziga xos o’rni, roli va ahamiyatini asoslash, oila tarbiyasi munosabatlarini ma’naviy-ma’rifiy mazmunini aniqlashtirish, boyitish va o’rganish bilan belgilanadi.

Ishning amaliy ahamiyati esa, mavzuda tatqiq etilgan xulosalar, uslubiy tavsiyalar asosida oilaviy ziddiyatlarni bartaraf etish barobarida barkamol avlodni voyaga yetkazish bo'yicha joriy va istiqbolli rejalar tayyorlash va ulardan samarali foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan belgilanadi.

Tatqiqot natijalaridan ma'naviy-mafkuraviy tadbirlarda "Oila" markazida faolyatida hamda "Oila psixologiyasi" fanini o'rganishda foydalanish mumkin.

Tatqiqot natijalarini e'lon qilganligi: Dissertasiyaning asosiy mazmuni, unda asoslangan asosiy holatlar, fikr-mulohazalar tadqiqotchining 3 ta maqolasida o'z aksini topgan.

Dissertaasya tuzulishi va hajmi: Dissertasiya kirish, ikki bob, 5 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy matn hajmi 67 saxifani tashkil etadi.

I. BOB. OILAVIY ZIDDIYATLAR VA OILA A'ZOLARI O'RTASIDA O'ZARO MULOQOT MADANIYATI

1.1-§. Mustahkam o'zbek oilasini tarkib toptirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng «Oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqaror» degan insonparvarlik tamoyilidan kelib chiqqan holda oilani mustahkamlashga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida, «Bola tarbiyasida sog'lom nasl masalasi ham muhim rol o'ynashini inkor etib bo'lmaydi. Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi» [8:56].

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zbek xalqi oilaga, milliy tarbiyaga azaldan katta ma'suliyat bilan qarab kelganligini va bu masala mamlakatimizda hamisha dolzarb bo'lishini ta'kidlab shunday yozadi: «...o'zbek xalqi azaldan o'zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta farzandga mehr qo'yish, ularning, qornini to'q, us tini but qilish o'z yo'li bilan , lekin bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb kasb etib kelgan» [8:112].

Demokratik davlatda oilaviy munosabatlarni to'g'ri va adolatli hal qilishga izn berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Majlisining IX sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi»ni [6:16] qabul qilinishini, uni o'zbek xalqi tarixida oilani mustahkamlash va uning manfaatlarini azaliy milliy an'analar hamda jahondagi ilg'or nazariy-huquqiy qarashlarning o'zaro sintezi negizida himoya qilish asoslarini yaratuvchi ilk qonun bo'lib qolishini alohida ta'kidlash zarur.

Ma'lumki, Yurtboshimiz mamlakatimizning asosiy Qonuni bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilingan kunning besh yilligiga

bag'ishlangan tantanali yig'ilishda 1998 yilning «Oila yili» deb e'lon qilgan edilar. Aslida «Inson manfaatlari yili» shiori ostida yakunlangan 1997 yil, oila muammolariga bag'ishlangan 1999 yil – «Ayollar yili», 2000 yil – «Sog'lom avlod yili», 2001 yil – «Onalar va bolalar yili», 2002 yil – «Qariyalar va qadrlash yili», 2003 yil – «Obod mahalla yili», 2004 yil – «Mehr-muruvvat yili», 2005 yil – «Sihat-salomatlik yili», 2006 yil – «Homiylar va shifokorlar yili», 2007 yil – «Ijtimoiy himoya yili», 2008 yil – «Yoshlar yili», 2009 yil «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili», 2010 yil «Barkamol avlod yili», 2011 yil «Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes yili», 2012 yil – «Mustahkam oila yili», deb e'lon qilinishi mamlakatimizda o'z mavridida anglab yetilgan ijtimoiy haqiqatning e'tirofi va yorqin ifodasi bo'ldi deb qarash zarur.

Istiqlol yo'liga qadam qo'yilgan dastlabki kunlaridanoq respublikamizda bu ma'naviy-moddiy zamin yaratib kelinayotgan edi. Bu esa mamlakatimizda o'ziga mos va o'ziga xos yo'l tashlanganidan dalolat beradi.

Prezident I.A.Karimov demokratik fuqarolik jamiyat qurish ishini sog'lom avlodni tarbiyalashdan boshlamoq zaruriyatini ilgari surgan edi. Ushbu maqsadda avval jahonning birorta mamlakatida bo'lmagan yuksak mukofot – «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis qilinganligi, so'ngra shu nomda jamg'armaning hamda birin-ketin «Kamolot», «Mahalla» jamg'armalarining hamda «Oila ilmiy amaliy markazi»ni tashkil etilishi, keyinchalik «Kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» (1994 yil), «Bolali oilalarni ijtimoiy – qo'llab-quvvatlash to'g'risida» (1997 yil) va boshqa tadbirlarning amalga oshirilishi, farmon va karorlarni hayotga tatbiq etilishini mamlakatimizda mustahkam oilani tarkib toptirish yo'lidagi mislsiz ishlar deb qarash zarur.

Haqiqatan ham oila faravonligini ta'minlash, uni mustahkamlash, aholi salomatligini muhofaza qilish, ta'lim jarayonini milliy lashtirish, milliy qadriyatlarimizni tiklash kabi masalalar davlatimizning ustuvor siyosatiga aylandi. Bu haqda O'zbekiston rahbari Islom Karimov «... Jamiyatimizning asosi – oila moddiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanmoqda. Biz

davlatimizning ijtimoiy asoslarini mustahkamlashda, uning barqarorligini ta'minlashda mamlakatimizning ertangi taqdiri bilan bog'liq bo'lgan jismonan sog'lom, ma'naviy jihatdan yetuk yosh avlodni tarbiyalashda oilaning muhim o'rin tutishiga katta ahamiyat bermoqdamiz», – deb ta'kidlagani bejiz emas [8:92].

Yuqorida ta'kidlaganidek, ona diyorimizda 1998 yilning «Oila yili» deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan oila manfaatlarini ta'minlash borasida mazkur yilda amalga oshirilgan tadbirlar davlat dasturining qabul qilinishi va amaliyotga tadbiiq etilishi, respublikamizda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, va h.k. bu borada katta imkoniyatlar yaratdi. Ular oila a'zolari ma'naviyatini yuksaltirishga, oila a'zolarida huquqiy va tibbiy ongni shakllantirishga, oilada sog'lom turmush tarzini yaratishga xizmat qilmoqda.

Ayollarning ijtimoiy hayotdagi maqomini oshirishga qaratilgan barcha sa'y-harakatlarni birlashtirish, ularning turmush sharoitini yaxshilash, jamiyatni yangilanishida ayollar ishtirokini kuchaytirish uchun sharoit yaratish 1999 yilning ustuvor vazifalaridan biri bo'ldi.

Ma'lumki, bizda ayol farishtaga o'xshatiladi. Xalqimiz maxsus maqol ham to'qigan:

Ayolning sarishtasi – odamning farishtasi.

Ayolga ehtirom – amalda jamiyatga munosabat darajasini bildiradi. Boshqacha aytganda, jamiyatning madaniy-ma'naviy darajasi ayolga munosabatga qarab aniqlanadi. Chunki,

Ayol Yerdan chiqqan emas – erkak bolasi,

Erkak ko'kdan tushgan emas – ayol bolasi.

Bizdagi shu yuksak kadr – qimmatdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 1999 yilni «Ayollar yili» deb e'lon qildi. «Oilada, davlat va jamiyat qurilishida ayollarning rolini kuchaytirish, ularning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari» Davlat dasturi ishlab chiqilib, amalga oshirildi. Ayolga munosabat bilan bog'liq asriy boy merosimizga «g'alvir»

solindi. «Ayolga ehtirom» degan maxsus to'plam shu asosda tayyorlanib chop etildi. Qanchandan-qancha maqola, risola, kitoblar nashr etildi, eshittirish, ko'rsatuv, hujjatli filmlar xalq hukmiga havola qilindi.

Shuningdek, davlat va jamiyat yuqorida ko'rsatilgan dasturning qabul qilinishi bilan davlat o'z zimmasiga quyidagi prinsipial yangi vazifalarni hal etish majburiyatini ham ma'suliyatini oldi. Ijtimoiy sohada; Davlat dasturini amalga oshirish uchun katta moliyaviy mablag'lar ajratildi. Ya'ni 72 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflandi; ijtimoiy yo'nalishda – ayollarni ish bilan ta'minlash, ta'lim saviyasini oshirish, sog'liqlarini mustahkamlash bilan bir qatorda ularning boshqaruv va hukumat tizimlariga, nodavlat tashkilotlariga faol jalb qilish, ularni qo'llab-quvvatlash borasida bir qancha choralar ko'rildi. Insonparvarlik sohasida – ayollarni ulug'lash uchun shart-sharoit yaratildi, ma'naviy-g'oyaviy rivojlanishimizda ularning o'rne va hissasi yuksak baholandi, ularni huquqiy va ijtimoiy himoyasidagi teng huquqligi kuchaytirildi. Bu xotin-qizlarning oilani shakllantirishdagi, turmushni yo'lga qo'yishdagi, navqiron avlodni tarbiyalashdagi, davlat va jamiyat madaniy qo'rilishdagi yuksak mavqei va ulushining e'tirofi bo'lishi bilan birgalikda ularning mamlakatning istiqbolini barpo etishdagi bitmas-tuganmas salohiyatiga berilgan munosib baho va bu salohiyatdan foydalanishga bo'lgan intilishdir.

O'z-o'zidan ravshanki, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini bunday himoya qilinishi ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash, oilalarning mustahkamligini ta'minlash, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish borasida qator muammolarni hal qilishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, mustaqilligimizni mustahkamlash, ajdodlarimiz an'alarini davom ettirishda xotin-qizlarimizning ulushlari nihoyatda katta. Bularni statistik ma'lumotlar orqali dalillash mumkin. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 51% ayollardan iborat bo'lib, islohotlarni amalga oshirishda qishloq xo'jaligida 39%, ilm-fanda 37%, xalq xo'jaligida 42%, sog'liqni saqlash tizimida 73%, xalq xo'jaligida 59% xotin-qizlarni mehnat qilayotganligini birgina o'zi yuqorida ko'rsatilgan fikrimizni isbotidir.

Yurtboshimiz I.A.Karimov «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari»ga to'xtalib «Respublikamizda onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha kuchli ijtimoiy kafolat yaratilgan, umumiy ta'lim va yosh avlodni professional jihatdan tayyorlash tizimi isloh qilinmoqda, oilani mustahkamlashga ko'maklashadigan, uni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydigan turli ijtimoiy jamg'armalar faoliyat ko'rsatmoqda» degan edilar [7].

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham «Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi», deb ta'kidlangan [1:36].

Jumladan, uning «Oila» deb nomlangan XV bobining qator moddalarida quyidagilar bayon qilingan: 63-modda. Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

64-modda. Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga egunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarini va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi.

65-modda. Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

66-modda. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, ona Vatanimizda milliy tiklanish g'oyasini bosqichma-bosqich amalga oshirilishi tufayli oilada milliy an'ana, qadriyat va udumlarimiz qaytadan tiklanib, rivojlanish uchun sharoit yaratildi. Galdagi vazifa bu masalalarga keng xalq ommasi diqqatini jalb qilish hamda ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

1999 yil dekabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan tantanali majlisidagi nutqida yurtboshimiz I.A.Karimov «O'tgan yillarda e'lon qilingan ustuvor yo'nalishlar, ya'ni inson manfaatlari, Oila va

Ayollar yilida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish borasidagi ezgu ishlarimiz yangi yilda ham davom etadi. Chunki bu masalalar bir yoki birnecha yil bilan cheklanmaydi, doimo davlatimiz, jamiyatimizning diqqat e'tiborida bo'ladi. Mana shu ezgu niyatlarimizning uzviy davomi sifatida men yangi – 2000 yilni mamlakatimizda sog'lom avlod yili deb e'lon qilishni taklif etaman», deb ta'kidlagan edi [5].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sog'lom avlod» Davlat dasturida (2000 yil 15 fevral) sog'lom avlodni tarbiyalashga, yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan hayotiy o'rniga ega bo'lgan ma'naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori malakali, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga yo'naltirilganning keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur hujjatda sog'lom oilani shakllantirish va oilada yuksak ma'naviy-axloqiy muhitni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni takomillashtirishga, davlat, jamiyat va oila tomonidan sog'lom farzand tug'ilishiga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish; bolalarning salomatligini mustahkamlash, ta'lim olishi va har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoitlarni yaxshilashga, «Mehribonlik» uylarida, maktab internatlarda va ixtisoslashtirilgan maktablarda tarbiyalanayotgan bolalarga davlat tomonidan yordamni kuchaytirishga; ijtimoiy tafakkurda yetuk, har tomonlama komol topgan va sog'lom avlodni tug'ilishi va tarbiyalanishi uchun tug'ilishi va tarbiyalanishi masalalari bo'yicha aholiga yangi bilim berish tizimini yaratishga yo'naltirilgan «Sog'lom avlod» dasturi tasdiqlansin deyilgan. [5]

Mazkur qarorda ko'rsatilgan vazifalarni faqatgina faoliyati umuminsoniy va demokratik tamoyillarga asoslangan yangi tipdagi jamoat tashkilotlari jamg'armalar bajarishlari mumkin. Chunki ularning faoliyati hamdardlik, mehr-muruvvat, saxovat kabi o'zbek xalqining o'ziga xos xususiyatlari zaminida dunyoviy demokratik tajribalar asosida, avvalo yoshlarning salomatligini tiklash, ma'naviyatini boyitish zarurligini e'tiborga olishiga asoslangan. Keyingi yillarda o'zbek xalqining asl an'analari va odatlarini, kattalarga hurmat,

insoniylik va g'amxo'rlik tamoyillarini, xalq bayramlarini o'rganish, milliy va umuminsoniy g'oyalarni keng targ'ib qilishda Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi» va uning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi bo'limlarining hissasi tobora oshib bormoqda. Ushbu markaz va uning joylardagi bo'limlarining faollari yordamida kundalik hayotimizga va turmush tarzimizga harbiy vatanparvarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik, o'zbek oilalarining fazilatlarini targ'ib etish, bilim egallash, balog'atga yetish bilan bog'liq bo'lgan bayramlar kirib kelmoqda.

Bu bayramlar respublikamizda istiqomat qilayotgan barcha millat vakillarida mavjud bo'lgan jarayonlarga o'z hissasini qo'shishga qiziqish va xohishni uyg'otish, yuqori ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi. Jumladan, yuqorida ko'rsatilgan bayramlar turli millat vakillarining o'zbek xalqi madaniy merosiga qiziqishining ortishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Olib borgan izlanishlarimizning ko'rsatishicha, xalqimizning, ayniqsa yoshlarimizning ijtimoiy faolligini oshirishda davlatimiz rahbari tomonidan tashkil etilgan «Navro'z», «Mahalla», «Sog'lom avlod uchun», «Respublika bolalar jamg'armasi» va boshqa jamoatchilik jamg'armalarining ta'siri kattadir. Masalan, «Mahalla» jamg'armasi faollari o'z faoliyatlari davomida nogironlar uylariga, tabiiy ofatdan jabrlangan oilalalar, kam ta'minlangan oilalarga muntazam ravishda moddiy yordam ko'rsatmoqda. Shuningdek, «Navro'z» xayriya jamg'armasi ham nogironlarga moddiy yordam ko'rsatayotganligini axloqiy ta'kidlash lozim.

Mustahkam oilani tarkib topishida, oilalarda sodir bo'ladigan turli-tuman nizolar, janjallarni oldini olishda mahallaning o'rnini hyech bir narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «...o'z-o'zini boshqarishning xalqimiz an'analari va qadriyatlariga juda xos bo'lgan usuli-mahallalar tizimi so'nggi yillarda juda katta nufuzga ega bo'lib bormoqda. Ular amalda o'z hududlaridagi barcha ishlar uchun ma'suldirlar. Zero, mahallaning qo'lidan kelmaydigan ish yo'q».

Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi mahallalarning nufuzini ham ma'suliyatini ham yanada oshirdi.

O'z-o'zini boshqaruv organlarining «...nufuzini ko'tarish, bilingki, nafaqat iqtisodiy, nafaqat ijtimoiy, balki bu siyosiy, tarbiyaviy, ulkan ma'naviy masaladir. Biz mahallalarga shu nuqtai nazardan qarashimiz lozim. Mahallaning har qanday masalani yechishga qurbi yetadi. Nega deganda eng adolatli muhit, eng adolatli ijtimoiy sharoit, vaziyat faqat mahallada bo'lishi mumkin» deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov.

Demak, o'z-o'zini boshqarish organi – mahalla xalqning, oilalarning dardini anglovchi, unga yaqindan yordam beruvchi sifatida hozirgi kunda va kelajakda faoliyat ko'rsatishi kerak.

Shunga ko'ra «Mahalla» xayriya jamg'armasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- O'zbekiston aholisining tarixan tarkib topgan udum va an'analarini asrab-avaylash va boyitishga har tomonlama ko'maklashish;
- Kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, yetimlar va yolg'iz qolganlarga;
- Qariyalarga nisbatan insonparvarlik va mehr shavqatda bo'lish g'oyalarini targ'ib qilish, ularga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish;
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahallalarni ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahalla» xayriya jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori (1993 yil 1 dekabr)ga muvofiq uning faoliyatini yanada takomillashtirish vazifasini olg'a surish barobarida mazkur jamg'armaga hamda uning quyi bo'g'inlariga Respublika vazirliklari, idoralar, korxonalar, xo'jalik tashkilotlari muntazam ravishda moddiy-ma'naviy yordam ko'rsatish vazifasi topshiriladi.

Mazkur qarorda mahalla oqsoqollarning takomillari asosida kam daromadli va boquvchisini yo'qotgan oilalar va yolg'iz qolgan kishilarga

moddiy-ma'naviy yordam berish chora-tadbirlarini ko'rish zarurligini alohida ta'kidlanganligi, shubhasiz, oilalarni mustahkamlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Hukumatimizning o'z vaqtida qabul qilgan qarori mahalla faollari faoliyatini oilalarni mustahkamlash, oilaviy nizo va janjallarni tinch yo'l bilan bartaraf etish, ajralishlarni kamaytirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yoshlar orasida jinoyatchilikni qisqartirish, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga, mahallada turli sport maydonchalarini qurish kabi ishlarga yo'naltirilganligini ta'kidlash lozim.

Respublikamizning barcha shahar, tuman va viloyatlaridagi kabi Samarqand shahrida ham yosh oilalarni mustahkamlashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan Siyob tumanidagi «Xozorbog'» mahallasida shu xududda faoliyat ko'rsatayotgan 31-maktab bilan hamkorlikda yoshlarda oilaviy burch va ma'suliyatni to'g'ri tushunish, oila a'zolari o'rtasida adolatparvarlik, uy-ro'zg'or yuritishda tejamkorlik kabi sifatlarni shakllantirish maqsadida o'tkaziladigan «Namunali oila», «Namunali uy bekasi», «Namunali kelinchak» kabi ko'rik-tanlovlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda narkabiznesni tarqalishiga qarshi keskin kurash va uning salbiy oqibatlarini oldini olishga qaratilgan. Izchil chora-tadbirlar zararli odat (giyohvand) moddalariga berilib ketganliklari tufayli sodir bo'ladigan nikoh ajrimlarini kamayishiga samarali ta'sir ko'rsatib ko'plab yosh oilalarning davomiyligi ta'minlanayotganligida ham mahallaning roli sezilarlidir.

Respublikamizda e'lon qilingan «Ijtimoiy himoya ishi»da mahalla qo'mitasi, xotin-qizlar kengashi, maqola faollari, ziyolilari 31-umumiy o'rta ta'limi bilan hamkorlikda o'tkazilgan «Namunali oila» ko'rik tanlovi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Mazkur tanlovda asosan yosh oilalar ishtirok etdilar. Unga uzoq vaqt davomida tayyorgarlik ko'rildi, uni o'tkazish shartlari oldindan aniqlandi. Tanlov g'oliblarini aniqlash mezonlari ishlab chiqildi va mahallada istiqomat qiluvchi oilalarga tarqatildi. Mahalla fuqarolarining faolliklari tufayli ko'rik tanlovning oshkoraligi va ommaviyligi ta'minlandi, uni ikki turda o'tkazishga

kelishib olindi. Oilasini kichik Vatan, mahallasini esa uning mustahkam tayanchi deb bilgan, o'z halol mehnati bilan uning farovon, obod mahalla fuqarolari mazkur ko'rik tanlovni o'tkazishga xomiylik qilish istagini bildirib tanlov g'oliblarini qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlashdilar.

Ushbu tadbirning yosh oilalar uchun tarbiyaviy ahamiyati shunda namoyon bo'ldiki, bunda oilaning har bir a'zosi uning shon-shuhrati, an'analarini, rasm-rusumlarini ko'z qorachig'idek saqlashga, xalqimiz tomonidan asrlar davomida shakllanib kelgan o'zbek xalqining odatlariga, odob-axloq mezonlariga, oilada kattalarga mehribon bo'lishga, ro'zg'or yuritish tartib-qoidalariga sodiqliklarini namoyon qildilar.

Eng adolatli muxit, eng adolatli ijtimoiy sharoit, vaziyat faqat mahallada mavjud bo'lgani uchun ham uning har qanday masalani yechishga qurbi yetadi. Masalan, Samarqand shahridagi Sayid Baraka mahalla faollari mahalla jamg'armasi hisobidan kam ta'minlangan oilalarga, yolg'izlarga moddiy yordam ko'rsatish, yoshlarni mahalla markazida faoliyat ko'rsatayotgan sport to'garaklariga jalb qilish, mahalla xududini obodonlashtirish barobarida yoshlarni hali turmush qurishga, birgalikda yashashga ma'naviy jihatdan tayyor emasliklari tufayli vujudga keladigan nizolarni, ya'ni: er-xotinlarning o'zaro kelishmovchiliklari, fe'l-atvorining bir-biriga mos kelmasliklari, kelin bilan qaynona va boshqa yaqin qarindoshlarning chiqishmasliklari tufayli sodir bo'ladigan ajralishlarni muvaffaqiyatli oldi olinmoqda.

Mamlakatimizda oilalarni mustahkamlash yo'nalishida olib borilayotgan izchil siyosatning davomi sifatida 2007 yil 19 martda Prezidentimizning «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bo'ldi. Mazkur farmonga ko'ra 2007 yil 1 sentyabrdan boshlab davlat byudjetidan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam to'lash uchun ajratiladigan byudjet mablag'lari hajmi oshirilganligini ta'kidlash joizdir.

Ushbu tadqiqotimizda muhokama qilinayotgan masala munosabati bilan shuni aytish joizki, mamlakatimizda qabul qilinayotgan «Ijtimoiy himoya yili»

Davlat dasturi faqatgina 2007 yilga tegishli chora-tadbirlardan iborat emasligini alohida ta'kidlash lozim. Bu dastur mohiyatan mamlakatni umuman ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish, yanada takomillashtirishni ko'zlab tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 18 mayda qabul qilgan «Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni ham aynan shunday uzoq muddatli maqsadni ko'zlaydi.

Birinchidan Farmon har biri 30 yoshdan oshmagan, ilk bor rasmiy nikohdan o'tgan oilalar a'zolarini ham ijtimoiy himoyaga muhtoj toifaga qo'shdi. To'y qilishi, uy-joy qurishi ta'mirlashi va xarid qilishi (ijaraga olishi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishi, mebel va boshqa uzoq muddat foydalaniladigan hayotiy zarur tovarlar sotib olish uchun ularga imtiyozli foizlarda ipoteka kreditlari beriladigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yilning birinchi yarim yilligida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan majlisda qayd etilganidek, shu yilning birinchi yarmida oilalarga 20,4 milliard so'm qilib, shu jumladan o'z biznesini tashkil etishga 10,6 milliard so'm imtiyozli mikro-kredit berildi. [6:4]

Vazirlar Mahkamasining 2006-yilda mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisda I.A.Karimov «Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiy talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyat asoslarini qurish-farovon hayotimiz garovidir» mavzusida ma'ruza qilib «Birgina 2006 yilning o'zida tovar mahsulotlarini eksport qilish hajmi 31,5 foizga o'sib, 2000 yilga nisbatan 2 martadan ko'proq ortdi» [7:18]

Ba'zi kishilar hozirgacha eskicha tasavvur bilan davlat – bizga zavod-fabrikalarni qurib beradi, bolalarimiz ularda ishlaydi, deb o'ylab yuribdilar. Lekin Prezident I.A.Karimov zamonning bu masalaga munosabatini o'z ma'ruzasida aniq belgilab berdi: «Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda bizning asosiy ustivor yo'nalishimiz bundan buyon ham biznyes, jumladan

xususiy biznes uchun zarur bo'lgan barcha qulay sharoitlarni yaratishdan, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini izchil kamaytirib borishdan iborat bo'lib qolaveradi» [34]. Demak bundan buyon aksariyat zavod-fabrikalarni ham xususiy mulk egalari barpo etadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, davlatimizning izchil iqtisodiy-ijtimoiy siyosati ishga yaroqli barcha oila a'zolarini moddiy ishlab chiqarishga jalb qilish orqali moddiy qiyinchiliklar tufayli sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nikoh ajrimlarini oldini olishga, oilalarni farovon yashashga qaratilganidan dalolat beradi.

Yurtboshimiz o'z ma'ruzasida 2007 yilning asosiy ma'suliyat qatori to'rtinchi ustivor vazifani quyidagi tarzda qo'ydi: «2007 yilda alohida e'tibor talab qiladigan yana bir ustivor vazifa – bu ish haqqi miqdorini va aholi turmush darajasini izchil oshirib borishni ta'minlashdan iborat» [6:47]. Yil davomida davlat byudjetidan ta'minlanadigan xodimlar maoshi, nafaqa, stipendiyalar miqdori ikki marta oshirilgani ham shu yo'lda tashlangan qadamlardan hisoblanib, oilalarning mustahkamlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Istiqlol tufayli ijtimoiy hayotimizda sodir bo'lgan muhim yangiliklardan biri-bu turmush tarzimizga, ma'naviy qadriyatlarimizga, kishilarimiz ongiga o'zining o'chmas muhrini bosgan din mavzusini kirib kelishidir.

Islom dinida, uning muqaddas kitoblari bo'lmish Qur'onu Karim, Hadislarda er va xotinning o'zaro insoniy va mulkiy munosabatlari, farzandni dunyoga keltirish va uni voyaga yetkazishda ota-onalik ma'suliyati va burchi bayon qilinganligi sababli musulmon xalqlari oilani qadrlaganlar, ajralishlarni esa taqqirlaganlar. Xalqimizning uzoq o'tmishdan buyon avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ushbu qadriyatlardan mahalla faollari, xotin-qizlar kengashi, imom xotibi va boshqalar yosh oilalarni mustahkamlashda foydalanish asqotadi.

Masalan, 2011-2012 yillarida Samarqand viloyati Urgut tumanidagi Jartepa shaharchasi «Rahmatobod» mahallasida 3 ta yosh oilalar saqlab qolindi.

Oilalarni mustahkamlash, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy adolatli himoyalash, yosh avlodni sog'lom, ma'naviy jihatdan davrimizning yetuk

farzandi qilib tarbiyalashda ommaviy axborot vositalarining ham ahamiyati katta.

O'tkazilayotgan badiiy kechalar, davra suhbatlari, turli mavzulardagi uchrashuvlar «Oila muxiti va farzand tarbiyasi», «Oilada ota-ona o'rni», «Qizlar davrasi», «Kelin sepi bilan emas, epi bilan qadrli» kabi eshittirishlar fikrimizning dalilidir.

1.2. Islom va Movarounnaxrlik buyuk mutafakkirlar merosida oilaviy munosabatlar masalalari

O'rta Osiyo mutafakkirlari va ma'rifatparvarlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus Jaloliddin Devoniy, Alisher Navoiy, Muxammad Bobur, Munis Xorazmiy, Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Qori Niyoziy, Cho'lpon, Fitrat va boshqalarning asarlarida oila va oilaviy munosabatlar haqida qimmatli fikrlar mavjud. Ularning ko'plarida mazkur masalaga oid qarashlar muayyan tartibda tushuntirilgan va ta'limot darajasiga ko'tarilgan.

Millatimizning uch ming yil avvalgi kuhna madaniyati va boy ma'naviyatidan saboq beruvchi «Avesto», turkiy xalqlarning eng qadimgi yozma yodgorliklari bo'lgan «Urxun enasoy btiklari», «Irq bitiklari»da [10] oilaning muqaddasligi, uning mustaqilligini saqlash, «Nikoh» tartiblari, er – xotinning majburiyatlari, nikoh tuzish qonun – qoidalari haqidagi manbalar, Qur'oni Karim va hadislarda oila, nikoh, er va xotin, farzand parvarishi va tarbiyasi haqida ko'rsatmalar berilgan.

Kaykovusning «Qobusnoma» asarida ota-onani e'zozlash, odob-ahloq, tarbiya, hunar, mehnat hususida maslahatlar berilgan.

Yusuf xos Xojibning «Qutadg'u bilig» (yaxshilik keltiruvchi bilimlar) asarida ahloqiy fazilatlariga ilm, zakovat orqali erishish mumkinligi ko'rsatilgan.

Alisher Navoiyning «Mahbub-ul qulub» («Qalblarning sevgisi») asarida insonning fe'l-atvori, gap-so'zlarning ahamiyati, yaxshi fe'llar va yomon xislatlar, uylanish va uning foydasi, oila odobi va oilada ayollarning fazilatlar haqida foydali fikrlar bayon etilgan. [14]

Shuningdek, Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asari ahloqshunoslik fani va oila bo'yicha muhim manbadir. [10]

Oiladagi o'zaro munosabatlar madaniyati malakasi tasavvuf falsafasida ham alohida o'rin tutadi. Bu falsafaning yirik namoyondalari bo'lgan Ahmad

Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro targ'ibotlarida ota-onalar o'zaro munosabatlarning farzandlar kamolotidagi roli, farzandlar ota-onalarga bo'lgan munosabati mavzui alohida ta'kidlanib o'tilganligini ko'ramiz.

Shuningdek, ulug' ullaamlar bo'lmish Al-Buxoriy At-Termiziylarning hadis to'plamlarida, asarlarida ham mazkur mavzuga katta e'tibor berilgan.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining ko'pchiligi shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan. Oilaning muqaddasligi, ayolning e'zozlanishi, erkakning uy-ro'zg'or va oila tebratishdagi yetakchi roli va ma'suliyati, kattalarni hurmatlash, kichiklarga g'amxo'rlik qilish kabi ijobiy fazilatlarni tarbiyalashni alohida ta'kidlaganlar, ularning merosi milliy tiklanish davrida va Sharq oilalariga xos bo'lgan noyob qadriyatlarni amaliyotga tadbiq etishga harakat qilinayotganligi hozirgi davr uchun muhim ahamiyatga egadir.

Sharqda, jumladan O'zbekistonda oila chinakam oila bo'lib shakllanganidan boshlab hozirgi davrgacha ko'p qirrali va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Har bir tarixiy davrda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari xilma-xil mazmun bilan boyib bordi hamda oila davrning chigalli sinovlaridan omon o'tib, jamiyatning negizi sifatidagi xususiyatini saqlab qoldi.

«Oila inson erkinligini cheklovchi makon» deb targ'ibot olib borgan G'arb olimlarining salbiy targ'ibotlariga dosh berdi. Chunki oila inson ehtiyojlarini qondiruvchi makon;

Oila insonga yashash uchun qulay sharoit yaratib bergan kichkina Vatan;

«Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir» [19].

Oila millat sharafiga yuqori martabaga ko'taradigan madaniyat o'chog'idir.

Ma'lumki, oila ikki jinsga mansub kishilarning – erkak va ayolning o'zaro tengligi, muhabbati, bir-birlarini anglagan holda birga yashash va ko'payish istagining, jamiyatni to'ldirish, avlodlarni muntazam yangilab turish, eng

muhimi, uni ham iqtisodiy, ham ma'naviy-axloqiy jihatdan mukammallashtirish yo'lida birgalikda qiladigan harakatining hosilasidir [31:20].

Bu ta'rif zamonamizdagi oilalarga berilgandir. Oila dastlab yuzaga kela boshlagan patriarxal zamonida erkak va ayolning tengligi, bir-birini sevishi haqida hech qanday tasavvurlar shakllanmagan. U davrlarda ayol huquqi cheklangan, erkakning mulki sanalgani uchun uni sotishi, sovg'a sifatida boshqa odamga taqdim etishi hamda tahqirlashi mumkin edi. O'shanda ayol oila doirasida ham, jamiyat doirasida ham er asoratiga giriftor qilingan edi. Shunga qaramay, oila doirasida boylik orttirish va uni qonuniy vorislar – farzandlarga berish maqsadining anglanishi, shu yo'lida boshlangan sa'y-harakatlar oila va oilaviy munosabatlar takomilida muhim rol o'ynay boshladi. Bu jarayonning chuqurlashuvi natijasida oila qurishga munosib ayolni tanlashga, binobarin, unga bokiralik to'lovini to'lashga (mahr va qalin sifatida) yoxud ota-onasining martabasi va boyligi darajasida munosabatda bo'lishga, xullas, sevib-sevilishiga e'tibor beriladigan bo'ldi. Natijada iffat va nomusni sharflovchi nikoh an'anaga aylanib bordi. Nikoh ikki jinsdagi kishilar – yigit va qizning el nazarida qaror topgan, birga yashashga oid ahdu paymoni bo'lib, bunday vaziyatda jinsiy munosabat shar'an halol sanalgan va shunday shar'iy nikohdan tug'ilgan bola jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida qadrlangan. Aksincha, nikoh qonun-qoidalariga amal qilinmay, nikohsiz tug'ilgan farzandlar «haromi» deb nomlanib, ular jamoaga baxtsizlik keltiruvchi, balo-qazolarni boshlab keluvchi maxluq sifatida baholanib, imkon qadar ulardan «nari» yurish, ehtiyot bo'lish ta'kidlangan. Bunday farzandlar otasi mol-mulkingining vorisi bo'la olmaganlar.

Shar'iy nikohning bosh sharti iffat va bokiralik qimmatini mahr, qalin va to'y xarajatlari evaziga to'lash hisoblangan. Qadimgi turkiy tilda «qiz» so'zi jinsni anglatmagan, balki iffatli, bokira, nodir va qimmat-baho degan ma'nolarni anglatgan.

Shu tariqa qalin, mahr va to'y xarajatlari qizning bahosi, aniqrog'i iffat va bokiralik qimmati tarzida yuzaga kelgan. Bunday iqtisodiy to'lov oila mustahkamligi garovi vazifasini o'tash bilan birga, erkak va ayol jinsiy

aloqalarining axloqiy qoidalar asosida yuzaga kelishini ta'minlagan hamda bu munosabatlarni pinhona, qonuniy tarzda go'zallik pardalariga o'ragan. Bu an'ananing eng qimmatli ahamiyati nasl-nasabni sog'lomlashtirgan, oilada sog'lom turmush tarzini vujudga keltirgan. Shuning uchun bokiralik, nomus tuyg'usining sharaflanishi davrimizgacha yetib kelgan, hozirda ham o'z qimmatini yo'qotganicha yo'q. Shu asosda nikoh ilohiy ahdga va oila muqaddas qarorgohga aylangan. Oilada pokiza nasl-nasab tuyg'usi va u bilan faxrlanish takomillashib borib, vatanparvarlik, xalqparvarlik faxr-iftixor tuyg'ularini vujudga keltirgan.

O'zbek xalqining hayotida ham mavjud tartib va qoidalar xalq an'analari, islom dini va shariat asosida vujudga kelgan, ularning qadri qanday ekanligini tahlil etsak, qadimdan Sharqda hayot oilaviy turmush tarziga asoslanganligi, oilada ayollar e'zozlanganligi, ularni og'ir ishga jalb etmaslik, uning ijobiy fazilatlari to'la e'tirof etilishi bilan ifodalangan. Shariatda balog'at yoshiga yetgan qizning baxti oila qurib, farzandli bo'lish, ayolning eng birinchi vazifasi onalik ekanligi uqtiriladi. Yurtimizda ham ayolning o'z mehnati bilan topgan mablag'iga hamda mahriga hych kim egalik qila olmagan.

Shuningdek, ayol kishiga mehnat qilish man etilmagan, balki, o'ziga, tabiatiga munosib, shaxsiyatiga to'g'ri keladigan mehnat bilan shug'ullanish targ'ib qilingan. Ayol doim erkaklar himoyasida bo'lgan, o'z oilasiga ega bo'lgunicha ota-onasining, keyin erining, qarigan chog'ida esa, farzandlarining himoyasida bo'lgan.

Hadislarda oilasiz va nikohsiz bo'ladigan aloqalar haromligi, bunday aloqa turli noxushliklar, ko'ngilsizliklar va zararli oqibatlarga olib kelishi ta'kidlanadi. Bunga rioya etib yashagan musulmon xalqlarida oilaga bo'lgan e'tibor va munosabat nihoyatda yuqori o'rinda turishidan dalolatdir.

Shariatda oilada yashovchi kishilarning bir-birlari oldidagi burch va vazifalari ham belgilangan, er-xotinning bir-biri oldidagi burchlari, bolalarning ota-onalari oldidagi burchlari, bolalarning ota-onalari oldidagi burchlari aniq belgilangan. Bundan tashqari, imon jihatidan oilada ayollarga nisbatan

marhamatli, yumshoq muomalada bo'lish urning burchlaridan biridir, deb uqtiriladi. Hadisi shariflarda ta'kidlanishicha: «Agar o'zing ovqat yesang, xotiningni ham ovqatlantirasan, o'zing kiysang, xotiningni ham kiyintirasan, uni urmaysan, so'kmaysan va hijron qilmaysan», «Ayollarni faqat karamli kishilargina hurmat qiladilar, ularni faqat bezorilargina xafa qiladilar».

Farzandlarning ota-onalariga munosabatida ham onaning qadri alohida ko'rsatiladi, ayniqsa, «Jannat onalar oyog'i ostidadir», degan hadis mazmuni katta tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Hadislarda «Ota-onangga itoat, Allohga itoatdir. Ularni rozi qilish, Allohga rozi qilishdir», deyiladi.

Bir kishi Payg'ambar huzurlariga kelib: «Amallardan kimning suhbatida haqlik va yaxshilik topamiz», deb so'radilar. U kishi: «Onangning suhbatidan topasan», dedilar. «Yana kim» deb edi: «Onang», dedilar. «Yana boshqa kim?» dedilar. «Yana kim», deganda: «Otang», dedilar.

Yana bir kishi Payg'ambar huzurlariga kelib: «Ey Allohning Rasuli, men odamlardan kimga yaxshilik qilay?» debdi. Payg'ambar «Onangga», deb javob berdilar. Haligi kishi: «Undan so'ng-chi», desa, «Onangga», deydilar. «Undan so'ng-chi?» deb to'rtinchi marta so'raganida: «Otangga», degan ekanlar. Chunki ona farzandini tarbiyalab voyaga yetkazganda otadan ko'ra ko'proq mashaqqat chekar ekan.

Bu ma'naviy meros O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy va axloqiy qarashlarida o'z ifodasini topgan. Bu asarlarda inson eng buyuk zot bo'lganligi uchun uni baxtli, farovon hayotga chorlovchi g'oyalar keng o'rin egallagan.

Ularning fikricha, faqat oilaviy hayot orqaligina farovon hayotga erishish mumkin. Oilaviy hayot tarzi sog'lom turmush tarzining bir qismidir. Kamolatga ham oilaviy tarbiya, oilaviy munosabatlarning yuksakligi, sadoqat, oilaviy totuvlik orqali erishish mumkinligini ta'kidlaganlar.

Shuning uchun ularning asarlarida bayon etgan oila qurilishi, er-xotinning oilaviy burch va vazifalari, ota-onalarning bolalar oldidagi burch va vazifalari,

oilada farzandlarning sog'lom va ma'naviy barkamol etib tarbiyalash uslublari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham qimmatlidir.

Oila va oilaviy tarbiyaga oid bunday fikrlar Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Mineralogiya», «Geodeziya», «Hindiston», «O'tgan avlodlar obidalari», Abu Ali ibn Sinoning «Axloq fani», «Oila xo'jaligi», Alisher Navoiyning «Hayrat-ul abror» va «Mahbub-ul qulub» asarlarida o'z ifrdasini topgan.

XX asr boshlaridagi milliy taraqqiyparvar harakat vakillari-jadidlar jamiyatni isloh qilish uchun astoydil kirishganlar. ulardan biri Abdurauf Fitratdir. O'zi yashagan davr hayotning barcha sohalarida chuqur inqirozga yuz tutganligi tufayli u xonliklarning ayanchli ahvoli, ularning umumjahon jarayonlaridan ancha orqada qolganligi, ma'naviy qashshoqlanish yuz berganligi haqida kuyinib yozadi.

Fitrat «Oila» asarida oila asosini to'g'ri qurish, oilada yosh avlodga jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya berish orqali manna shu turg'unlikdan qutilish, jamiyatni isloh qilish mumkinligini bayon qilgan. «Millat taqdiri manna shu milat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi», deb yozadi u mazkur asarda.

Fitrat o'z fikrini davom ettirib, «Agar bir mamlakat aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi», deb yozadi. Muallif oilaviy hayot o'z qonun va qoidalariga ega ekanligini, bu qonunlarga rioya qilish orqaligini odamlarni jaholatda qutqarish mumkinligini bayon etadi. Uning fikricha, oila saodati va baxti uchun qilingan eng maqbul qonun islomiy qonundir. Baxtsizligimizning sababi oiladorlik xususidagi har bir harakatimiz, sarob orzularimiz va xato fikrlarimizning natijasi bo'lib, aksariyati Qur'on hukmlariga ziddir. Shuning uchun zulm va tajovuz ko'rmagan oilalar bida nihoyatda kam ko'rinadi.

Shuningdek, Fitrat «Hozirgi taraqqiy etgan islomiy o'lkalarda turk, arab, fors olimlari o'z millatlarining kimligini anglab yetib, oila nizom va tinchligi haqida ancha kitob yozdilar. Bu kitoblarda ular diniy va dunyoviy hukmlarga tayanib, oilaviy masalalarga izoh berganlar deb boshqa millat-olmon, ingliz, faranglar bu masalada bizdan ancha oldinda, shuning uchun ham ular johillikdan qutulib, ma'naviyati yuksak millatga aylanib borayotganliklarini ta'kidlaydi».

Fitrat «Oila» asarida oilaviy hayot tarzini targ'ib etadi: oldingi dinlarning tobelari orasida tarkidunyo qilib, xotin va farzand orzusidan ko'z yumgan odamlar ham mavjud bo'lgan. Lekin bufi ikr tabiat qonuniga zidligida rivojlanmadi va hayotda o'z tatbiqini topmadi. Ana shu xato va shubhalar xatari millat boshiga tushmasligi uchun izdivoj (uylanish) foydalarini tahlil etadi. «Uylanishning ko'p qiyinchiliklari va zahmatlari bor. Odamlarning tabiatiga esa rohat yoqadi. Agar odamning ixtiyori o'z qo'lida bo'lsa edi, bo'ydoqlik rohati va ozodligini uylanish azobi va mehnatiga aslo qurbon qilmasdi. Binobarin, hazrat Hakimi Qodir erkagu ayol mijoziga shahvatni qo'shitib bergan. Ular shahvat taqozosi bilan birga bo'lishni istab uylanadilar. Oqibatda farzand sohibi bo'ladilar. Ana shunday sabablarga ko'ra, bashariyat nasli Iloh irodasi bilan oxirotgacha boqiy qoladi».

Fitratning yozishicha, uylanish uchun to'rt narsaga e'tibor berish kerak: mol, nasab, husn va iymon e'tiqod Uylanish orzuida bo'lgan er bilan xotinning mol (boyliklari) va nasablari taxminan bir xil bo'lishi lozm, Aks holda, er bilan xotin bir-birlariga teng bo'lmay, biri boy va kalonzoda bo'lsa, ikkinchi tomonni faqirlik va zoti pastlikda ayblab, hayotini mudom azobga qo'yadi. Xususan, islomiy tarbiya doirasidan chetda qolgan mamlakatimiz xalqi boylik va kalonzodalik natijasi, albatta, yaxshi bo'lmaydi. Jamol (husn) bu ko'rinish demakdir, ya'ni qarayotgan kishi nazariga chiroyli ko'rinib, uning qalbini o'ziga moyil qilish demakdir,

Qalbdagi paydo bo'lgan bu moyillikni muhabbat deyish mumkin, Hayotda do'st, baxt va baxtsizlikka sherik, g'am-qayg'u vaqtida hamdam, xushnutdamlarda bir-birlariga yor bo'lishni istagan erkak va ayol shaxsiy va ijtimoiy

vazifalarini birgalikda bajarishlari kerak. Ularning o'rtalarida ana shu qalbiy moyillik va muhabbat bo'lmasa uylanish o'z-o'zidan zararga aylanadi.

Shuningdek, Fitrat bu asarida oila qurishning birdan-bir maqsadi farzand ko'rish va uni tarbiyalashdir, agar bo'lajak er yoki xotinda farzand ko'rishga monelik qiluvchi qusurlar bo'lsa, oila qurishmasa ham bo'ladi, degan fikrni bayon etadi va bu fikrni hadislardagi quyidagi fikrlar bilan isbotlaydi: «Bir kishi Payg'ambar huzuriga kelib arz qildiki: «Men bir boy, nasabi toza ayolni uchratdim, lekin tug'maydi. Unga uylansam bo'ladimi? Payg'ambar: «Yo'q», dedilar. Yana kelib so'ragan edi, hazrat man qildilar. Uchunchi marta kelganida rasuli akram: «Oxiratda men sizlarning ko'pligingiz bilan iftixor qilurmen», deb javob berdilar. Shunday qilib, Rasuli hakim buyruqlariga binoan, har bir erkak va ayol birga bo'lishni istagan bo'lsalar, bu jihatga ham ahamiyat berishlarini ta'kidlaydi.

Fitrat to'y qanday bo'lishi haqida shunday yozadi: «Bizning mamlakatimizda to'y ko'p zararlarga sabab bo'lgan hollari mavjud. Buxoroda shunday odamlar borki o'n-o'n ikki yil davomida besh-olti ming so'm mablag'ni zo'r berib yig'adilar. Bir hafta ichida hammasini «to'y» nomi bilan nobud qiladilar, yana qarzdor va kambag'al bo'lib qoladilar. To'y kunlari sarpo kiygan, yeb-ichgan odamlar to'y egasining ahvolini, so'ramaydilar ham. Agarda bu beandishadan: «Shuncha mol-holni nimaga behudaga sarf va xarj qilib, bu qora kunga tushdingiz? Qaysi din, qaysi mazhab, qaysi hukumat va qaysi qonun sizlarni bu ahmoqoni ishga majbur qildi?» deb so'rasangiz, albatta, javob bera olmaydilar. Bunday to'ylar islom shariatida yo'q, chunki bu isrofgarchilikdir, isrof esa shariatda haromdir».

Muallif bu asarida oilada xotin-qizlarga munosabat haqida gapirib, quyidagi masalalarga alohida e'tibor beradi: «Mamlakatimizdagi xotinlar har daqiqada qanchadan-qancha tahqir va jafolarga duchor bo'lib yashamoqdalar. Biz turkistonliklar o'z xotinlarimizni odamiyat doirasidan tashqarida deb o'ylaymiz va bu bechoralarga odamga qilgandek muomala qilmaymiz. Ko'p holatda hayvonlarning holiga yuragimiz achishadi. Ko'p holatda hayvonlarning

holiga yuragimiz achishadi. Ammo ayollarning parishon hollariga muruvvatimiz yetmaydi. Xotinlarimizni marhamatga sazovor, insofga loyiq va shafqatga haqli deb bilmaymiz. Bizda xotinlarni so'kish faxr va g'urur sanaladi, urib mayib qilishni esa erkakchilikning fazilati deb bilamiz. Alloh ayolni faqat shahvoniy orzularimiz va hayvoniy ehtiroslarimizni qondirish uchun yaratgan deb o'ylaymiz. Go'yo, Alloh ularga huquq, e'tibor va fikrlash fazilatini bermagandek. Ko'cha va bozorlarda bizga yetgan alam va zararni uyga qaytib xotindan olamiz. Ichimizdagi bu odat eski va keng tarqalgan bo'lganligi uchun uning qabih va yomonligi ko'zimizga ko'rinmaydi. Hatto, bechora xotinlarimiz baxt va saodatlaridan batamom noumid bo'lib, shunday xulosaga kelganlarki, Alloh odamzotning hamma fazilatlarini erkaklarga berib, ayollarni ularning jabru zulmlariga asir va giriftor qilgan, toki Xudo dargohining bu shakkoklari har kuni ayollari orqali hyvoniy shahvatlariga orom berib, qolgan vaqt bu bechoralarni so'kib, tahqirlab xizmat buyursinlar. Ana shu e'tiqod xotinlarimiz tabiatidan joy olgan. Ular haqiqatda ham bashariyat fazilatlarining aksaridan mahrum bo'lganlar. Izzat talab, sharaf va huquqlarini himoya etishlari zarurligini tushuntirib berganda ham fahmlamaydilar. Ya'ni hurmatsizlik va izzatsizlikni o'zlarining xislatlaridan deb bildilar. Iffat va imonlarini erlarining oyog'i va kaltagidan himoya qilmaydilar. Ya'ni axloqiy tafakkur va vijdoniy hukm eslaridan chiqqan. Muhokama tafakkurni batamom tark qilib, bir mashinaga o'xshab, erlarining ishoratiga tobe bo'lib qolganlar. Xulosa qilib aytganda, baxtsizligimiz va qoloqligimizning eng muhim sabablari ham shundadir.

Ma'lumki, odam birinchi tarbiyani onasining bag'rida oladi. Shu narsa muqarrarki, birinchi tarbiya (oila tarbiyasi) tarbiyaning eng muhimi hisoblanadi. Uning ta'siri odam tabiatiga mustahkam o'rnashadi. Shaxs ruhiyati, axloq javhari va odatlari bolaligidanoq shakllanadi. Endi o'zingiz bir o'ylang biz boshlang'ich tarbiyani shu onalarimizdan olar ekanmiz, nega biz ham bu ahvolga tushmas ekanmiz?... Eng avvalo, isloh va adolat bilan tartib solinishi

lozim bo'lgan qoida, bu er-xotinning muomalalari sanaladi». Fitrat fikrini davom ettirib bu munosabatlar Qur'on hukmlari asosida isloh qilinishini yozadi.

Qur'oni karim eru xotin munosabatini bir asosiy qoida sifatida bayon qiladi. «Erning xotinga nisbatan qanday huquqi bo'lsa, xotinning ham erga nisbatan shunday haqqi bor», deyilgan Baqara surasida. Shu oyati karimadan ma'lum bo'ladiki, Xudovandi karim ayollarni erlariga qul qilmay, balki erkaklarga qancha huquq bergan bo'lsa, ayollarga ham shuncha huquq ato qilgan.

«Kimki o'z eridan hurmat va mehr ko'rmasa, unga muhabbat va ko'ngil qo'ymaydi. Bizning mamlakatimizda bu shartlarga, ko'pincha erkaklar qarshi chiqadilar. Bechora xotinlarimizga odobsizlik va hurmatsizlik qilamizda, yana ulardan mehru muhabbat ham kutamiz», deb yozadi Fitrat.

«...Darvoqe, mamlakatimizda ayollar shuncha zulm ko'rsalar ham o'z erlariga itoat qilib bo'ysunadilar. Lekin ularning bu harakatlari mehr va muhabbatdan emas, balki chorasizlik va mazlumlikdandir. Shuning uchun ham islom dini ko'proq erkaklarga murojaat qilib, oilada muomala va munosabat xususida ularga ta'lim beradi. Masalan, Qur'on (Niso surasi)da shunday oyat nozildir: «Ayollarga yaxshi muomalada bo'linglar». Bundan tashqari Fitrat shu o'rinda: «Sizlardan eng yaxshilaringiz o'z ahli ayoli bilan yaxshi muomala qilgan kishidir. Men o'z ayollarimga sizlarga bo'lganimdan ham ko'ra xushmuomaladaman». Eng komil mo'minlar xushxulq va oilasi bilan lutf ila munosabat qiladiganlardir. O'z xotinlariga tanti kishi yaxshilik qiladi va nomardi yomonlik», degan hadislarni ham keltiradi.

Muallif yana davom etib yozadi: «Xotin-qizlar haqiga yaxshilik qilish uchun tashviq va targ'ibotiga mana shu hadisi sharif kifoya qiladi».

Ibn Umar rivoyat qiladilar: «Hazrati Usmon nikohida bo'lgan Payg'ambarning bir qizlari Badr vaqtida kasal edi. Shu sabab bilan Hazrati Usmon g'azotga bormadilar. Hazrati Payg'ambar buni dedilar: «Ey Usmon, senga ham Badr urushiga ishtirok etganlar qatori g'animat va o'lja beriladi».

Ko'rinib turibdiki, sahobalarning sardorlaridan bo'lgan Usmon xotiniining xastaligidan musulmonlarning birinchi g'azotidan qoldi, lekin g'azotning savobi va g'animatidan bir g'oziy sifatida bahramand bo'ldi. Xotinlar haqiga yaxshilik qilishning darajasi bundan ham yuqori bo'ladimi?».

Fitratning yozishicha, ilm diniy va dunyoviy ishlarni bajarish uchun zarur, ayollar ham ilm o'rganishlari shart. Erkak ahlu ayolini boqish uchun har kuni ertadan kechgacha xizmatga boradi. Tanigan-tanimaganlar bilan muloqot qiladi, kun davmida bir necha marta g'amga botadi. U uyiga qaytganida uyining saronjomligini, ovqati muhayyo bo'lishini orzu qiladi. Xotini ochiq ko'ngil bilan uni kutib olib, odamlar muomalasi, ishxonasining ranju kulfatidan orttirgan qayg'u alamini ko'nglidan ko'tarishini kutadi. Ilmli va tarbiya ko'rgan ayollar bu ishlarni ortig'i bilan bajarib, erlarini mamnun qiladilar. Farzandlarini jismonan, aqlan, axloqan mukammal tarbiyalaydilar.

Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz – millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur. Aks holda, xotinlarimiz erkaklardan qo'rqib, zaif va g'ayratsiz bo'lib qolishlari tufayli bolalarimiz ham ularga o'xshab ketadilar.

Umuman, Fitratning bu asari o'zbek oilasining o'ziga xosligi, kamchilik va yutuqlari, mamlakatni isloh qilishining oiladan boshlanishi, oilaning asosiy vazifasi, oilada ota-ona va farzand tarbiyasi, o'sha davrda oilada ayollarning mavqeyi, uni o'zgartirish masalalari ilmiy tahliliga bag'ishlangan. Bu asarning hozirgi davr uchun ham ahamiyati katta.

Aytish mumkinki, shunday ma'naviy merosdan foydalanib, o'z hayot tarzini tuzgan musulmon xalqlarida bugun oilaviy hayot tarzi birmuncha barqarordir.

Sharq oilasining bir qismi bo'lgan o'zbek oilalarida ham o'zaro hurmat, qat'iy ichki intizom asosida barcha a'zolarining o'z burchi va vazifalarini ado etishlar, bir-birlariga nisbatan ezgulik va mehr-oqibat ko'rsatishlari an'anaga aylana borgan. O'zbekiston o'z shaxsiy farovonligidan ko'ra oila sha'ning baland tutilishi, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlariga, qo'ni-qo'shnilariga

g'amxurlik qilishning birinchi o'ringa qo'yilishi oliy darajadagi qadriyat bo'lib, o'zbek qalbidagi bu gavharlar muhitini samimiyatga yo'g'irishga, oilani mahalla va jamiyat bilan bog'lashga va mustahkamligini ta'minlashga xazmat qiladi. Oila intizomi jamiyat va davlat intizomining sarchashmasidir. Oilasida intizom tuyg'usi shakllangan kishi davlat va jamiyat ishida ham shu tuyg'u sohibi sifatida xizmat qiladi, davlat qonunlariga chap berishni xayoliga ham keltirmaydi, har bir ishni o'z joyida va o'z vaqtida belgilab, tartib asosida bajaradi. Bunday intizom va tartib butun xalq va millatning sharafiga aylanadi. Aytaylik, nemis va yaponlarga xos intizomning jahon miqyosida e'tirof etilishining sababi ham ana shunda. Fitrat bunday intizomlikning ijtimoiy mohiyatini shunday ta'riflaydi: «Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning intizomi va totkvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esi shu millat oilalarining intizomiga tayanadi».

Shunday ekan, o'zbek oilasiga xos tartib-intizom har bir oila a'zosidan oilada o'z burchi va mas'uliyatini anglashni, oilaviy munosabatlar madaniyatiga ega bo'lishini, oila iqtisodiy imkoniyatini hisobga olgan holda ish yuritishni, oila manfaatdorligini ta'minlashga intilishni, oila sha'nining sharaflanishiga erishishni oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishni talab etadi. O'zbek oilalarida qadimdan bu talablarni bajarishga harakat qilingan. Natijada bugunga kelib o'zbek xalqida oilaning barqarorligi tufayli turli masalalarni hal etishda bosiqlik, andisha, yoshi ulug'larni hurmatlash kabi insoniy fazilatlar takomillashgan. Shuning uchun barcha davrlarda oilani mustahkamlashga, uning to'liqligini ta'minlashga harakat qilingan. Ajralishlar qoralangan. Agar oilada er tasodif tufayli vafot etsa, uy egasining xotini, farzandlarining moddiy va ma'naviy mas'uliyatlarini qarindoshlari o'z zimmasiga olgan. Yetim qolgan bolalariga ota tarbiyasini berishgan, qo'ni-qo'shni, mahalla-ko'y ularning holidan muntazam xabar olib turgan, bu holat manna shu oiladagi o'g'il farzand voyaga yetib, barcha tashvishlarni o'z zimmasiga olgunicha davom etgan.

Shunday qilib, har bir inson, u katta yoki kichik, erkak va ayol bo'lishidan qat'i nazar, oila bag'rida yashagan, bu insoniylik in'omi hisoblangan. Shundan

bo'lsa kerak, qadimdan yangi oilalarning shakllanishi kimga, qanday qizga uylanish masalasini yechishdan boshlangan. Qiz tanlashning ham ajdodlardan meros qolgan go'zal urf-odatlari saqlanib qolgan. Bu sovchilikdir. Ular nafaqat ikki yoshning qovushida, balki ikki katta xonadon, qarindosh urug'lari bir-birlari bilan yaqin birodar yoki aksi bo'lib qolishiga ham sababchidir. Shuning uchun muomalali, didli, farosatli sovchilar tanlash maqsadga muvofiq hisoblangan. Odatda, sovchilar kayvoni, el orasida obro'-e'tiborli, tagli-tugli, oqilu-fozil kishilardan tanlanadilar. Chunki ularning vazifasi og'ir va mas'uliyatli. Sovchining so'zi mantiqli, ishonarli, zalvorli bo'lmog'i lozim. Sovchilar kelin nomzodi aniq bo'lgandan keyin yigitning oilasi nomidan qiznikiga, bo'lajak kelinnikiga elchilik qilib, uning roziligini so'rab borishadi. Ular savdosining pishish-pishmasligi, avvalo, kuyov bo'lmishning o'zi, ota-onasi, qarindosh-urug'i, qolaversa, sovchilarning mahoratiga ko'p jihatdan bog'liq. Odatda bunday kishilar har ikki oilani, ularning farzandini yaxshi bilganlar. Ko'pni ko'rgan, tajribali ota-onalar quda-anda bo'lishda uzoqni ko'zlab ish tutishgan. Sovchilar ham kelin va kuyov nasl-nasabda, ijtimoiy mavqyeda, bilim- saviyada, did-farosatda, iymon-e'tiqodda bir-biriga munosib bo'lsalargina bu mas'uliyatni o'z zimmalariga olishgan. Sovchilik jarayonida ular ikki jihatga e'tibor berishgan:

- 1) kelin bo'lmishni sinashgan. Ular avvalo kelinning tashqi qiyofasi, bo'y-bastiga ahamiyat berishgan;
- 2) xonadonning tartib-intizomligiga, jihozlarini did bilan joylashtirganligiga, asosiysi ozodaligiga, supurib-sidirganligiga e'tiborni qaratganlar. Masalan, andijonlik sovchilar gilam ostini ko'tarib qarab, o'chog' boshi va xojatxona kuzatsalar qarshiliklar oyoq kiyimlarining tarkibi, dasturxon astorining avraga mos tushgan-tushmaganligi, supurgining qay ahvolda turgani bilan qiziqadilar. Urgutda kelinning kashtado'zligi bilan qiziqsalar, Farg'ona vodiysida choyshab, sochiq, quroq qilishi, to'n, nimcha, kamzo'l, qiyiq, do'ppi tikish san'ati bilan qiziqishgan. Agar bo'lajak kelin ham husni malohat, ham mehnatu san'atda sovchilarini qanoatlantirsagina ular bu xonadon egalaridan to

rozilik olgunlaricha sabr bilan qatnashishgan. Kelinning qadrini ko'tarish uchun sovchilarning bir – ikki kelishida rozilik berilmagan. Fikrimizni Muhammad Zaxriddin Muhammad Boburning Gulbadanbegim yozib qoldirgan «Xumoyunnoma» tarixiy etnik asarida keltirilgan quydagi kichik bir lavha ham isbotlaydi. Xumoyun podshoh Mirzo Hindolning saroyida Hamidabonu begimga ko'zi tushadi. Ko'p o'tmay Hamidabonu begimning ko'nglini so'rab sovchi yuboradi. Hamidabonu: «Men qo'limni uzatsam bo'yniga yetadigan kishiga tegaman», deb qilgan injig'ligi natijasida sovchilar ropa-rosa qirq kun ovara bo'lishadi uni ko'ndirishguncha qadar esa Xumoyun podsho sabr bilan kutadi. Xumoyun podsho o'z mamlakatining shoxi, yeru-ko'kning egasiga qaramasdan ajdodlardan meros qolgan sovchilik odatiga rioya qiladi. Vaholanki, zo'rlik bilan bo'lsada, bonu visoliga yetishi uchun imkoniyati bor edi.

O'sha kutish zamirida nafaqat yigit tomonning sabrliligi, balki qiz tiomonga bo'lgan ehtirom, ichki madaniyat, hurmatga zohirdir. Hadisda aytilganidek: «Iymonning afzali sabr va keng qalbli bo'lishdir». Qolaversa, Xumoyun podshoh qiz bolaning eshigiga kelgan sovchi uning ziynati, obro'si bo'lishi bilan birga, bo'lajak kelinning noz-istig'nosi, hayoning kuchliligidan darak deb bildi.

Sovchilikning eng qiziq tomoni shundaki, ular qaysi xonadonga borimasin, rad javobi berishadigan bo'lsa ham, mehmondo'slik bilan kutib olinadilar. Agar ular rozilik berishsa, olib kelgan sovg'a-salomlar va non olib qolinadi hamda ularning ishtirokida davrada o'tirganlarga tarqatiladi. Sovchilarga sorupolar beriladi. Rad javobi beradigan bo'lsa, mezbonlar o'zlari uchun pishiralayotgan taomdan sovchilar oldiga keltiradilar, bo'lmasa yo'q. Hammassidan qizig'i «Kovushi to'g'rilanib», kiyishga shay qilib qo'yilsa, bu xonadonga o'sha sovchilar qaytib qadam bosishmaydi.

Kelinni sinash bilan birga kuyov yigitni sinash odatlari mavjuddir. Xo'sh, kuyovlar qanday sinalgan? Bizga o'nlab xalq ertaklaridan ma'lumki, malikalar turmush qurishdan avval talabgor yigitga bir qancha shart qo'yganlar. Yigitlar tog'dagi odamxo'r ajdaholarni, yovuz devlarni o'ldirishgan, falon mamlakatdagi

falon jodugarning oltin yolli otini keltirishgan va hokazo. Bu bilan o'zlarining o'ktam, bahodir, tadbirkor ekanliklarini jamoa va malika oldida isbot qilganlar. Va qirq kechayu qirq kunduz to'y tomosha qilib, malika visoliga yetganlar.

Bu sinov odatlari yillar davomida sayqallanib, hozirgi kungacha yetib keldi. Mamlakatimizning ko'p joylarida bu odatlar kichraygan holatda saqlanib qolgan. Masalan, Bulung'urda kuyovning sabr-toqatini sinash uchun uchiga mix qoqilgan gavron bilan turtib bilganlar.

1.3 - § Oila va oilaviy munosabatlarni o'rganishning hozirgi holati.

Oilaning hayotiy tarzi va ziddiyatli masalalarini o'rganish bilan xorijiy davlatlar, M.D.X. hamda Vatanimizning sasiolog, psixolog, faylasuf, pedagog olimlarni shug'ullanib kelmoqdalar.

Amerikalik olim V.Satir zamonaviy oilaning bola tarbiyasi va uning manfaatlariga bog'liq ekanligidan kelib chiqib, bu maskandagi hayot maromi va tutumini bola rivojlanishining o'ziga xos bosqichlari bilan bog'lagan holda o'rgangan [32:460] . Bundan muallif bir-birlaridan farq qiluvchi 9 bosqichni ajratgan. Masalan, birinchi bosqich oiladagi hayot davri ikki yoshning uzoq muddatga ahdu-paymon qilib niqoh qurishga qaror qilgan onlardan boshlansa, ikkinchi bosqich oilada zuriyotni paydo bo'lishi, tug'ilishi, er-xotinning asl munosabatlarini sinovdan o'tkazish va shu bilan bog'liq yangicha munosabatlarni shakllanishi, ya'ni er-xotinning yangi rollarga kirishi, ijtimoiy ma'suliyatni olishi, ota-ona rollariga kirishi bilan ifodalanadi.

Oilaviy munosabatlarni tahlil qilish shundan dalolat beradiki, mazkur jarayon barcha xalqlarda ham bir xil kechmasligini ko'rsatmoqda. Jumladan ko'plab xalqlarda, ayniqsa o'zbek oilalarida bolani tug'ilishi juda katta quvonchli marosimlar bilan boshlanib, ular qadriyat sifatida (suyunchi berish, aqiqa, beshik soldi, sunnat, boshqa to'ylari) asrlar osha saqlanib kelinmoqda. Ayrim, Yevropa halqlarida oilada farzandining dunyoga kelishi muayyan tashvishlar, ruhiy tarangliklar, oilaning yaqinlariga ijtimoiy va moliyaviy tashvishlar keltirib chiqarishga, pirovard natijada oilaviy munosabatlar tarangliklarini yuzaga keltirishga, ayrim hollarda esa, er-xotin munosabatlarining darz ketishiga, ajrashishlarga sabab bo'ladi.

Bola rivojlanishining uchinchi bosqichi uning maktabgacha borishi bilan boshlanib, unda har bir bolaning oilada qay darajada va qanday ijtimoiylashgani sinovdan o'tadi. Chunki, u endi nafaqat o'z tengqurlari bilan, balki kattalar, begonalar bilan muomalaga kirisha boshlanib, u onasida qanday ahloqiy – ma'naviy o'gitlar olganligi, kimning bolasi ekanligi hamda oilasida qanday

ruxiy muhitni mavjudligini namoyon bo'lishiga sababchi bo'la boshladi. Eng muhimi – maktabning birinchi kunlaridanoq, bolaning aqliy va intellektual salohiyat, intizomi sinovdan o'tadi. Boshqacha aytganda yaxshi yoki yomon ota-onalik rollari maktabning dastlabki oy va yilida bilina boshlagan sababli ko'pchilik ota-onalar ana shu davrlarda kuchli stresslarni boshlaridan kechirishlari mumkin.

V.Satir bola rivojlanishining har bir bosqichini tahlil qilib, uning barcha davrlari uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlarini ochib beradi. Masalan, 4-bosqichda o'smirlik davrining o'ziga xos ziddiyatlari girdobidan chiqa olgan ota-ona bola munosabatlarining jiddiy yomonlashi, ayrim bolalarni uydan ketib qolishi holatlariga sabab bo'ladi, 5-bosqich davriga kelib, «Bola-ota-ona» munosabatlari tugaydi.

Mazkur munosabat, Yevropaga mosdir: va hokazo.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, hayotning turli davrlarida oilaviy turmush tarzini o'zgarishi tufayli oilada sodir bo'ladigan nizolar, ziddiyatlarini ma'lum ma'noda tabiiy bir xol bo'lib, uni har bir oila boshida kechiradi. Ayni paytda bunday nizo va ziddiyatlar aksariyat hollarda oilaviy rollar ko'payganda, farzandlar tug'ilganda, qudalar bilan munosabatlar boshlanganda, ajriqlar ro'y bergan bosqichlarda ayniqsa sezilarli bo'lishini ta'kidlash joiz.

R.Kappenbergning ta'kidlashicha oilaviy munosabatlarda favqulotda sodir bo'ladigan hodisalar ta'sirida ziddiyatlar paydo bo'ladi. Masalan, o'g'ilning noqobil bo'lib giyohvand moddalar iste'mol qilishini oila a'zolarini bilib qolishi, oila a'zolarining munosabatlarining to'satdan o'zgarishiga, oiladagi munosabatlarni qaytadan ko'rib chiqishga olib keladi.

Psixolog V.Satir oilani kelib chiqish nuqtai nazaridan biologik hisoblangan ijtimoiy institutga texnologik metodologiyani tadbiq etib, uni tushunish borasida nafaqat yangi yo'nalishga asos soldi, balki uni davolash, bu boradagi tibbiy muammolarni ham o'rganishni boshlab berdi. Bunda V.Satir oilaviy hayotni tizimli tarzda tavsiflash uchun «Oila energetikasi», «Oila

tizimi», «Oila chegarasi», «Oilaning funksional xususiyatlari» kabi tushunchalarni ishlatadi.

Mustahkam oilaviy munosabatlarni tarkib toptirishda mazkur tushunchalarning muhimligini hisobga olib, ularning ayrimlarini qisqacha qarab chiqishga o'tamiz.

«Oila energetikasi» tushunchasi oilaning tibbiy-biologik xususiyatlaridan tortib, uning psixologik mavjudligini belgilovchi olimlar. Ekologik shart-sharoitlar, tiriklikning mezonlari bo'lish ovqatlanish hamda har bir oila a'zosining hatti-harakatlarining namoyon bo'lishigacha qamrab oladi.

Oila a'zolarining kundalik muloqot, muomila jarayonlarini V.Satir go'yoki «bir qozonda qaynovchilarning birgalikda yashashida namoyon bo'ladigan hissiyotlar ko'zgusidan» tasavvur etadi. Mazkur «Qozonda»gi xis-kechinmalar hayotning muayyan davrlarida o'ta jo'shqin va boy bo'lsa, balki bir davrda mazmunan tor va tarang bo'ladi. Boshqacha aytganda oila a'zolarining bir-birlariga mehr-muhabbat yaqinligi, hamkorligi ma'lum davralarda kuchli bo'lsa, boshqa davrlarda buni aksi bo'lishi kuzatiladi.

Oilaning funksional xususiyatlari bu oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning sifatiy tomonlarini taksimlaydi.

Psixolog V.Satir oilaviy munosabatlar jarayonida ko'zga tashlanadigan muloqotning 5 xil uslubini ajratib, ularning to'rttasini samarasiz deb ataydi, bittasini esa yetarli darajada tajriba va bilimga ega bo'lgan yetuk muloqot uslubiga kiritadi.

Quyida muomila jarayonida biror muammo yoki to'siqni yengishga yoki o'zini ataylab yaxshi ko'rsatish yoki kimgadir yoqishga yoki kimnidir nimagadir ayblashga taklif qilishga qaratilgan muloqot uslublarini qaraymiz. Xushomadgo'ylik uslubi o'zini yerga urib bo'lsada, o'zgalar bilan kelishib yashashni nazarda tutadi.

Ayblovchi uslub doimo kimgadir nimanidir o'rgataverish, tanqid va nazorat qilish, faqat o'zidan kuchli odam oldidagina biroz o'zini tortish bilan bog'liq muloqotni o'z ichiga oldi. Xisob – kitobli muomila uslubida inson

hamisha va har qanday vaziyatda aniq, bexato harakatlar qilishga (adashmay doimo «to'g'ri, benuqson» bo'lish)ga intilish tufayli insonning harakatlari doimio sun'iyday, his-tuyg'ulari esa mazmunsiz, doimo taziq ostiga olishganday bo'ladi.

Chetlashtirilgan muomila uslubi inson o'zini nima qilib bo'lsada o'zgalardan uzoqda, muayyan masofada to'plashga, odamoviday boshqalarning nazarida ham ularning ta'siridan ham o'zini chetga tortib turishini ifodalaydi.

Yetuk adaptiv muomila inson hamisha o'z oiladoshlari bilan to'g'ri, samimiy ochiq munosabatlarga tayyor turishni bildiradi. Odatda bunday oila a'zolari o'zining barcha fazilatlarini bilgani va saqlagan holda boshqalarning ham shaxs ekanligini, individualligini unutmagan holda muloqotga kirishadi.

AQSh oilaviy psixo-terapevt olim S.Minuxinning konsepsiyasi oilani murakkab tuzilishga ega ekanligi, uning tarkibiga alohida individlar, bir qator tizimlarni qamrab oladi. Ichki tuzilmalar kvalifikasiyalarga birlashib, oila doirasida turli hodisa va jarayonlarni keltirib chiqaradi.

Oila rivojlanuvchi tuzilma bo'lib, uning a'zolari yillar o'tgan sari rivojlanadi, yetuklikka erishadi, qariydi, ya'ni u doimiy o'zgarish va rivojlanishni boshidan kechiradi.

Oilaning tarkibiy tuzilmasi ham muxim bo'lib, uni eng avvalo alohida individlar tashkil qiladi.

Er-xotin tizimi oiladagi er va xotindan iborat bo'ladi erkak va ayol qovushishdan boshlangan bu tuzilma aslida bir-biridan butunlay farq qiluvchi qadriyatlar, qarashlar, e'tiqodlardan topib ularning har bir yashash jarayonida bir-birlarini bilib borgani sari o'zlarining qarashlari, xatti-harakat me'yorlari, odat va qiliqlaridan asta-sekin voz kechib oilaviy birlikka erishadi. Bu jarayon qancha tezroq sodir bo'lsa oilada er-xotinning bir-biriga moslashuvi (adaptasiyasi) keyinchalik tez amalga oshadi. Mazkur uyg'unlik esa yillar davomida sayqal topib boradi.

Lazarev va Rachening ta'kidlashicha inson boshidan kechirishi mumkin bo'lgan stress (g'am)lardan eng kuchlisi turmush o'rtog'idan judo bo'lgan

paytda sodir bo'ladi. Chunki uzoq yillar davomida birga yashab, bir-biriga qo'shilib kirishib kelgan o'rtog'ini yuqotish er (yoki xotin) ga kuchli ta'sir qiladi.

Ota-onalar tuzilmasi hamma vaqt ham er-xotinlikni nazarda tutmaydi, ya'ni uni yolg'iz momo, bobo, xolla yoki to'ng'ich farzand ham tashkil etish mumkin. Shu boyisdan psixoterapevtik muolaja (maslahat)larda ota-onalar tuzilmasini aynan kim tashkil etishni bilish ahamiyatlidir. Ota onalar barcha farzandlarining kelajagi, kamol toptirish uchun oilada sog'lom turmush tarzini yaratishga, tarbiya jarayonini yaxshilashga o'z bilim, tajribasi, kuch g'ayratini safarbar etuvchilardir.

S.Minuxin oila ichidagi mavjud tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlarning yo'l qo'ygan oilalarni muammoli oilalar deb hisoblagan ko'p farzandli oila munosabatlar tizimi serqirra bo'lib, unda ba'zi, farzadlarning to'ng'ich ota-onadek yuqori pog'onaga ko'tarilishi mumkin.

Bunday oilalarda munosabatlarning yaxshi, samimiy bo'lishi uchun ota-ona barcha farzandlarining oiladagi maqollarning aniq barobarida to'ng'ich bola bilan kichik yoshdagilar o'rtasidagi muammola qoidalarini bolalikda bir maromda yo'lga qo'yishlari lozim. Bunda ota-ona tuzilmasi, ota-onaning mavqeyi, obro'si kuchli va yetakchi bo'lishi shart.

Distant oilada uning a'zolaridan biri, ko'p hollarda ota u yoki bu sababga ko'ra oila a'zolari bilan kam ko'rishadi. Bunday oilada er-xotinlik aloqalari ham ota-bola munosabatlari ham bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ham bir muncha aziyat chekishini ta'kidlash lozim.

Beqaror oilada er yoki xotinning birinchi nikohdan ajralgandan so'ng to ko'ngliga maqul bo'lgan insonni topmaguncha turlicha munosabatlar tizimida bo'lishi munsabati bilan ota yoki onaning farzandlar bilan aloqasi taranglashadi.

M.Bouen oilaning inson salomatligidagi benazir rolikidan, xususan ruhan bekor bo'lganlarni davolashda oilaning imkoniyatlaridan foydalanish g'oyasini targ'ib qiladi. Tadqiqotchining fikricha, inson o'z umrini o'tkazadigan ijtimoiy guruhlardan eng muhimi bu oiladir.

Rossiyalik A.Ya.Ansupov, A.I.Shipilov «Konfliktologiya» [13:496] darsligida tizimli yondashuv asosida mazkur fanning ilmiy asoslarini yoritish barobarida muhokama qilayotgan muammoni ham yoritishga e'tibor berganlar. Darslik mualliflari er-xotin nizolarining o'ziga xosliklari, ota-onalar va bolalar o'rtasida sodir bo'ladigan nizolar hamda nizoli oilalarga psixologik yordam (maslahat) ko'rsatish bilan bog'lik masalalarni atroflicha yoritishga harakat qilganlar.

Farg'ona davlat universiteti professori T.Egamberdiyeva o'zining «Oilaviy qadriyatlar jamiyatning negizi sifatida» nomli maqolasida [18:108-112] muallif «Oilaviy marosimlar kishilik jamiyatning taraqqiy qismi sifatida milliy qadriyatlarni o'zida aks ettirib, mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini qaror toptiradi, inson va oila hayoti bilan bog'liq bo'lgan ilg'or an'analarning shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi va oilada intizom qadriyatini e'zozlashni tarbiyalaydi», deb yozadi.

Ma'lumki, bobolarimizning azaliy tushunchalari bo'yicha oilaviy niqoh-ilohiy axd, turmushning muqaddas nizomi hisoblangan. Shu bois nikoh jamiyatda qanchalik ustivor bo'lsa, oila jamiyatining asosiy qancha sog'lom, farovon, osoyishta bo'lsa, jamiyat ham shuncha mustahkam rivoj topishini ta'kidlash joiz.

Muhim qadriyatlardan biri hisoblangan oila hozirgi davrda ham jamiyatning asosiy negizi sifatida ahamiyatga ega. Oila qadriyatining eng muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, uning ahilligi, mustaqilligi, obodligi va madaniyatlilik u yashayotgan jamiyatning farovonligi hamda ma'naviyat mezoni hisoblanadi. Mehnatsevar va badavlat, ma'naviy yetuk va madaniyatli oila esa shu jamiyatning asosini tashkil etadi.

Pedagogika fanlari nomzodi D.Xaliqov «Oilashunoslik ishi-oila muammosi yechish ekanligi» [33:112] nomli maqolada oila institutining paydevorini mustahkamlash, er-xotin munosabatlarini tubdan yaxshilash, farzandlarni kamolotga yetkazishda oilashunoslik ilmining imkoniyatlarini yoritib bergan. Maqola muallifi o'zi ishlab chiqqan «Oilashunoslik» fanning

«Oila huquqi», «Oila demokratiyasi», «Oilaning tibbiy biologik asoslari», «Oila ma'naviyati», «Oila psixologiyasi» yo'nalishlarda o'rganishni tavsiya qiladi.

Sh.Ergasheva «Oilaviy munosabatlarda ota-ona ibratini» nomli maqolasida oilaviy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning maxsus, o'ziga xos shakli ekanligi, oilaviy munosabatlar madaniyati ota-ona o'rtasidagi munosabatlar madaniyatga qay darajada bog'liq ekanligi, uning turli oilalarda turlicha shakllanganligi, shu boisdan ham mazkur munosabatlar yoshlarni barkamol etib tayyorlashga bir xil ta'sir etmasligini alohida ta'kidlaydi.

Muallif jismonan sog'lom, ma'naviy boy, axloqan pok farzandlarni voyaga yetkazish uchun oilada ota-ona o'z-o'zini topishi, ularni o'z iste'dodlarini amalga oshirishlari uchun moddiy va ma'naviy imkoniyatlar yaratishda birgalikda ishtirok etishlari, o'zaro hurmat bir-birini tushunish kattalar bilan yaxshi munosabatda bo'lishi hamda oilaviy totuvlikni saqlashga harakat qilish zarur deb hisoblaydi.

Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch – oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasida birlikni saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tayyorlashga alohida e'tibor berilishi, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, undagi o'zgarishlarni kuzatib borish hamda mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash ota-onaning birinchi darajali vorisidir.

O.Safarov, M.Maxmudov «Oila ma'naviyati» kitobida [31:216] o'zbek oilalari ma'naviyatning tarixiy asoslari, ma'naviy ruhiyati, an'analari, farzandlar tarbiyasi muommolari istiqloq mafkurasi nuqtai nazardan tahlil etsalar, O.Musurmonova jamiyatda tutgan o'rni, oilaviy tarbiya, oila a'zolarining oiladagi o'rni, oilada milliy pedagogik nuqtai nazardan, E.Yusupov «Oilaning ma'naviy asoslari» kitobida oilaning mohiyati, ota-onalarning bola tarbiyasidagi ma'suliyati, farzandlik burchiga oid ba'zi milliy, diniy an'analarimiz tahlil qilganlar.

O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari bo'yicha professorlar M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, G'.E.G'oziyev va boshqalarning ilmiy ishlarini ko'rsatish mumkin. Bu tadqiqotlar oilaning xususiyatlari, farzandlarda ota-ona nisbatan ma'suliyat hissining namoyon bo'lishi, oilaviy nizolar va ularning kelib chiqishi sabablari, o'zbek oilalarida ota-onaning tarbiyaviy rolini ko'rsatishga qaratilgan.

Professor V.M.Karimova [20:200] oilada xotin-qizlar mavqeini o'rganish masalasi va o'zbek ayollari tasavvuridagi o'zgarishlarning sosial-psixologik shart-sharoitlarini tadqiq etgan.

Shamsiyev U.B. «Oilada maktabgacha yoshdagi bola shaxsini o'zini-o'zi anglashning ijtimoiy-psixologik omillari» mavzusidagi dissertasiyasida hozirgi kunda umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya hamda boshqa turdagi fanlarda «Men» konsepsiyasi muammosini o'rganilishi, «Men obrazi, o'zini- o'zi anglash genezisi tushunchalarini turlicha talqinlari, o'zini-o'zi muammosi psixolog olimlar izlanishlarida qo'lga kiritilgan emperik ma'lumotlar orqali ota-ona bolalar va er-xotin munosabatlari bilan aloqada bolaning o'zini anglashini shakllanishiga doir masalalar tahlil qilingan [36:23].

K.U.Najmiddinova «Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy ahloqiy madaniyatning o'rni» nomli disertasiyasida oila tarbiyasining tarixiy ildizlari, manbalari, yo'nalishlari va usullari hamda ahloq, ahloqiy madaniyat, uning strkturasi va tamoyillari, oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyat uyg'unligi mehr – muruvvat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda oilaning roli masalalari yoritilgan [24:22].

II-BOB. OILADA SOG'LOM MA'NAVIY, IJTIMOIIY – PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.

2.1 § Oila a'zolari o'rtasida munosabatlar jarayonini yuksaltirishning moddiy, ma'naviy, psixologik omillari.

Oila a'zolarining o'zaro muloqat va o'zaro tushunishlari ularning birdamligi, ahilligini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida oilada hissiy yaratadi. Hissiy muhit yaratilgan oilalarda muammolarni vujudga kelishiga yo'l qo'yilmaydi. Agar biron bir muammo yuzaga kelib qolganda ham ular birgalikda oqilona, ahillik bilan bartaraf etishga intiladilar. Bunday vaqtda albatta oilaning kichik a'zosining yordami ham zarur bo'ladi. Shu sababli uning fikrini ham diqqat e'tibordan chetda qoldirmasliklari lozim.

O'zbek oilalarda oilaning kichik a'zolarining oilada muammolari hal etishiga yordamini aniqlagani mazkur hududiy xususiyatlarda qishloq o'smirlarida (24) shaxarlik o'smirliklarga qaraganda (12) ikki barobor, jinsiy xususiyatlarda o'g'il bolalarda (21,7) qizlarda (20) nisbatan yuqori ko'rsatkich olindi. Qishloq hududida bolalar yoshligidan ota-onasi va oila a'zolari bilan birgalikda mehnatga jalb qilinadilar. Bundan tashqari bu yerda kunu-tun birga bo'lishlarining o'zi ham oila birdamligini yaratadi.

Yoshlarning o'z oilasiga shodlik keltirish uchun qilayotgan harakatni aniqlash maqsadida berilgan savolga xududiy xususiyatlar qishloq va shaxarlik usmirlar o'rtasida (28), tafovut yo'q, biror jinsiy xususiyatlarda o'ni bolalarda (31,5 %) qizlarda (26) nisbattan yuqori bo'ladi.

Ma'lumki, inson psixologiyasini o'zgarishi, shakllanishi ko'p jihatdan oilaga bog'liq. Oila muxitining sog'lomligi inson ruxiyatining pokligiga olib keladi.

Oila insonning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan kichik ijtimoiy birlik hisoblanadi. Oiladagi tabiiy munosabatga er – xotin munosabatlari, farzand ko'rish;

Iqtisodiy munosabatlarga mulkiy – munosabatlar, oila mablag'i, uy-ro'zg'or, hovli-joy, boshpana:

Huquqiy munosabatlarga – nikohni davlat yo'li bilan qayd etish, er-xotin oldida, ularning nikohlari farzandlari oldida, farzandlari ota – onalari oldida ma'suliyatli va burchli bo'lishi;

Ma'naviy munosabatlarga – er-xotin, ota-ona va bolalar o'rtasida mehr muhabbat, shavqat, oqibat, sharqona ta'lim-tarbiya kabi insoniy tuyg'ular kiradi. Mana shu munosabatlar orqali oila a'zolari bir-birlari bilan umumiy va ruhiy bog'lanadilar.

Bunday oilalar hayot faoliyati jarayonida vujudga keladigan har qanday muammolar yechimini o'zlari topa oladilar

Oiladagi iqtisodiy munosabatlarni oilaning mustaxkam bo'lishiga ta'siri katta bo'lganligini hisobga olib, oiladagi mablag'ini kim sarflasa, ko'proq ma'qul bo'ladi. muammosini o'rganish maqsadida Samarqand viloyati pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tinglovchilarining 500 nafariga cizningcha oilada mablag'ni sarf xarajatlar uchun kim sarflasa ma'qul bo'ladi? deb so'rovnoma tarqatdik. Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, oilada ota – onaning bir – biriga munosabati ularning xulq – atvori, madaniy, siyosiy saviyasi, muammo madaniyati, ularning daromadi, sarf – xarajatlari, yashash sharoiti bolalar psixologiyasiga ta'sir qilib, ularni ruhan pok, ruhan tetik bo'lib shakllanishiga imkoniyat yaratadi.

Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi tomonidan nikoh ajrimlarining sabablari o'rganilganda er-xotinlarning o'zaro kelishmovchiliklari, fe'l-atvorlarining bir-biriga mos kelmasliklari, rashk, xiyonat, erkakning zararli odatlarga berilib ketishi va boshqalar bilan bir qatorda oila tebratishda moddiy qiyinchiliklarning o'rni ham sezilarligi ta'kidlangan.

Oilada uy bekasining har kuni tadbirkor, saranjom-sarishtalik, tejamkorlik, oqilona sarf-xarajat qilishi asosida ro'zg'orni butligiga, oilaning rivojlanishiga intilishi oilani mustahkamlash boyitishdagi omillardan biridir. Ayni paytda rejasiz xarajatlar tufayli erkaklar topib kelgan narsalarni buxuda

isrof qiladigan, ro'zg'ori baraka ko'rmaydigan, oilalarni nochor ahvolga solib qo'yadigan xotin-qizlar ham kam emas.

Bu ma'naviy kamchilikni oldini olishning yo'llaridan bir qizlarimizni saranjon – sarishtalikga, oilada xom – ashyo maxsulotlaridan, mablag'laridan tejab – tergab foydalanishga o'rgatish, bozor iqtisodiyoti sharoitda yuz beradigan qiyinchiliklardan qiynalmaychiqib ketish yechimlarini topishga yordamlashish, shubxasiz, oila a'zolari o'rtasida sodir bo'ladigan nizomlarni oldini olishga imkon beradi.

Ushbu maqsadda ta'lim muassasalarida va mahallalarda qizlarni bichish-tikish, to'qish, pazandachilik, turli xil konserva maxsulotlarini tayyorlash bo'yicha to'garaklarga jalb qilish asqotadi. Boshqacha aytganda, nikoh ajrimlarining besh omili yoshlarni ma'naviy jihatdan turmush qurishga tayyor emasliklaridadir.

Xalqimizga xos bo'lgan ota-onaning uzoro muomila jarayonida hamma vaqt farzandlari oldida bir-biriga mehr-vafoni izxor etishlari oilani yanada mustahkamlashi barobarida bolalar tarbiyasida ham katta ahamiyatga egadir. Avlod-ajdodlarimizdan qolgan bu bebaxo merosdan o'g'il-qizlar o'zlariga andoza oladilar. Ota-ona o'rtasidagi mehr-vafo oilaga mazmun va quvonch baxt etish bilan birga uni mustaxkamlovchi muxim psixologik omili hamdir.

Ana shunday sevgi va vafo, o'zaro izzat-hurmat hukmron bo'lgan oilalarda farzandlarning ma'naviy ruxiy kamolotida otanimi yoki onani siymosi birlamchi o'rinda turadi? degan savol tug'ilishi tabiy bir xoldir.

Oila tarbiyasiga bag'ishlangan adabiyotlarning tahlilini ko'rsatishicha, aksariyat mualliflar bu sharaflı ishni oilaning posboni, xukmdori, bosh tarbiyachisi er-xotinga yuklash sharaflidir, deb guvohlik beradilar.

Arab olimi Muhammad as-Savvofning guvohlik berishicha, Muhammad payg'ambarning uylari mo'minu musulmlarga madrasa bo'lgan. Kim biror narsani o'rganishni istasa, ta'lim-tarbiya bilan qiziqsa bu maskanga murojat qilgan va undan bir olam quvonch olgan. Sarvari olam sallollohu alayhi vassalam o'z oila a'zolariga shunchalik xushmuomila qilganlarki, ular hamisha

yuksak ahloqli a'lo namunali bo'lganlar va barcha xayrli ishlarda o'rnak ko'rsatganlar.

Demak, oila boshlig'i uning tayanchi, posboni ota bo'lib, u bizga payg'ambarimizdan hadya etilgan aziz va muqaddas ne'matdir. Payg'ambarmiz Muxammad alayhissalom bir hadisi shariflarida «Hech bir ota o'z farzandiga yaxshi tarbiya berish va odob o'rgatishdan ortiq hadya qila olmaydi» deb aytgan ekanlar.

Ikkinchi hadisda esa «Farzandlaringizni xurmatlanglar va ularning odatini go'zal qilingan», - deganlar.

Yoshlarning tarbiyasi avvalo ota-ona, qarindosh urug', atrof muhitdan boshlanadi. 14 – 16 yoshli qizlar balog'at yoshida bo'lib, ular bu davrda injiq tez bo'ladi. Bu davr qizlar ulg'ayib, mustaqil hayotga bosayotgan davr hisoblanadi. Bu davrda qizlarning tarbiyasiga kuchaytirish zarur. Ularga pandu – nasixat, ibratli o'gitlar, xayotda kerakli bo'ladigan yo'l – yo'riqlar ko'rsatish onalarning muxim vazifasidir.

Oilada sodir bo'ladigan mojarolar ko'pincha qaynona – kelin munosabatlaridan kelib chiqadi. Qizlarni yoshligidanoq xayotda uchraydigan hodisalarga oldindan tayyorlab, ularga asta – sekin hayot – harakatlarini qo'llashni xayot – xarakatlarini qo'llashni o'rgatib borish kerak. Bunda onaning roli katta.

«Ayol kishi yosh, nasab, mol – dunyo, mansab va unvon jihatidan eridan pastroq, odob, iffat va go'zallik nuqtai nazardan esa ancha ustun bo'lgan ma'quldir. Bunday oila tarbiyasi va mustaxkam bo'ladi». Ushbu xodisada ayol kishining har tomonlama yetuk bo'lishi xaqida gap ketayapti.

Chunki, oilada ayolning o'rni katta. Ayol kishi sog'lom avlodning davomchisi hisoblanadi. U bir farzandga bergan tarbiyasi butun bir jamiyat tarbiyasidir. Ayol kishi faqat bita farzandning emas, balki bir oilaning tarbiyachisi hisoblanadi. Bu o'rinda Rizouddin Faxriddining quyidagi so'zlari dim bo'laoladi: «Oilaning asl ustuni xotundir. Zero, erkaklar xulqu tarbiya xususida xotinlardan boshqa xech bir kimsaga bo'ysunmaslar. Xatto buyuk

maktablarda-yu oliy fikrli odamlar xuzurida ish oluvchilar ham onalaridan olgan tarbiyalari bilan yasharlar va bu tarbiyani so'nggi kunlarida qadar saqlarlar. Shu sababdan ham faylasuflardan biri: «Insonlar har vaqt xotunlar istagani kabi bo'lajaklar, agarda buyuk va fazilatli odamlarga ehtiyojingiz bo'lsa, eotunlarga buyuklik va fazilat o'rgatingiz» demakdir.

Xalqimiz orasidan o'zidagi hamma imkoniyatni farzandini farosat, kamolot bilan bezayotgan, vujudini ish, kasb-hunar ibosi bilan o'rayotgan otalar son – sanoqsiz desak xato bo'lmaydi.

Ayni paytda, oilada noqobil o'g'il yoki qiz o'ssa, bunda ikki asosiy sababni ko'rsatish mumkin. Birinchidan, otaning o'zi tarbiyasiz va tarbiyaga muxtoj bo'ladi. Uning farzandlari oldida obro'-e'tibori yetarli emas. Shubhasiz, bunday otaning ugit nasixatlarini farzandolari inobatga olmayilar. Ikkinchidan, ota siymosida salbiy xulq-atvor sifatlari, salbiy irodaviy harakatlar ustivor bo'lsa, bu xol o'g'il-qizlarning ma'naviy olamini yetuklik sari yetaklamaydi.

Psixologiya fani qonuniyatlariga ko'ra ota siymosiga xos bo'lgan sifatlalr albatta farzandlar qiyofasida o'z aksini topishini unutmasligimiz kerak.

Musulmon xalqlarida oila qanchalik qadrlansa, ajralish shunchalik taxkirlanadi. Shu nuqtai nazardan musulmon olamida o'ziga xos shariyat qonunlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular asrlar osha oila-nikox munosabatlarini tartibga solishi muhim oila bo'lgan. Qur'onk Karimning qator suralarida, jumladan uning «Baqara» surasida, esa va xotin o'zaro insoniy va mulkiy munosabatlar, farzandni dunyoga keltirish va uni voyaga yetkazish ota-onalik ma'suliyat va burchlar bayon etilgan.

Yuqorida ta'kidlaganidek, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda mustaqil respublikamizning birinchi konstitusiyasida oilani jamiyatning asosiy bo'g'ini, onalik va bolalikni davlat tomonidan himoyalaniishi, voyaga yetgan mehnatga yaroqli bolalarni o'zlarining ota-onalariga g'amxo'rlik qilishlari shart deb ko'rsatilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ishonchli xuquqiy kafolatlarda xalqimiz bosib o'tgan uzoq va yorqin tarixiy yo'lning meroslari yotganligini ta'kidlash joiz. Chunki, ota-onaga, bir-biroviga

muruvvat, izzit-hurmat bularning barchasi asrlar davomida avloddan- avlodga o'tib, bizgacha yetib kelgan va qonimizga, tanamizga singan eng ardoqli insoniy xususiyatdir.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 30 – moddasida «Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun javobgardirlar» [2:30] deb belgilab qo'yilgan.

«Kadrlar tayyorlash ilmiy dasturi»ning 32 – bandida esa ta'lim oluvchilarning o'qilish, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarni xalq etishda jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan [3:32] .

O'zbek oilalarida ota va ona, ota – ona va bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning ijobiy ko'rinishlari haqida behisob fikrlarni aytish mumkin. Odob, ahloq, andisha asosida quriladigan bunday munosabatlar to'laqonli ijtimoiy individual shakllantirish imkoniyatiga ega.

Ana shunday oilalar – sog'lom avlodni tarbiyalashining kafolati bo'la oladi. O'z navbatida sog'lom avlod baxtli oilalarning parvozigacha o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning ma'naviyat, sog'lom avlodni shakllantirish masalalariga oid risolalarida, O'zbekiston Respublikasining «Sog'lom avlod» davlat dasturida «Ijtimoiy tafakkurida har tomonlama kamol topgan yetuk va sog'lom avlodni tug'ilishi va tarbiyalanishi uchun yuksak ma'suliyat psixologiyasini shakllantirishga, sog'lom avlodni to'g'ilishi va tarbiyalanishi masalalari bo'yicha aholiga yalpi bilim berish tizimini yaratish vazifasi qo'yiladi.

Sog'lom avlodning tug'ilishi va tarbiyalanishi ko'p jihatdan ota-onaga, oila muxitiga, bo'lajak ota-onalarga oila hayotining murakkab, turli-tuman muloqot ildizlari, sir-asrorlarini qanchalik egallanganlik darajasiga bog'liq.

2000 yilda mamlakatimizda qabul qilingan va mantiqan «Inson manfaatlarini yili», «Oila yili» va «Ayollar yili»ning uzviy davlat dasturida balogʻat yoshiga yetgan qizlarimizning maktabdayoq oilaviy hayotga psixologik, jismoniy va tibbiy tayyorlashni yoʻlga qoʻyish, maxsus qoʻllanmalar yaratish; yoshlar oʻrtasida sogʻlom oila tushunchasini targʻib etish; xomiladorlik hamda farzand tugʻilishi paytida ona va bola salomatligini nazorat qilish; chaqoloqlarni bir yoshgacha boʻlgan davrda nihoyatda katta eʼtibor bilan parvarish qilish; bir yoshdan olti yoshgacha boʻlgan davrda bola salomatligini mustaxkamlash, toʻgʻri tarbiyalash; nogiron bolalarni davlat tomonidan himoyalashni kuchaytirish, ularni jamiyatimizning toʻlaqonli aʼzolariga aylantirishda sharoitlar yaratish eng dolzarb masalalar deb qayt etilgan.

Bu yerda «Sogʻlom avlod» muammosi yoshlarimizda mavjud boʻlgan maʼnaviy xastalik (oila, mahallada keksa qariyalarni xurmatlamaslik, ularning oʻgitlariga amal qilmaslik va hokozo)lardan xalos boʻlish masalalarini koʻzda tutishini ham oʻz ichiga olishini alohida taʼkidlash joiz.

Oʻzbek oilasining nodir etnopsixologik xususiyatlaridan biri oila aʼzolarining bir-biriga va oʻz-oʻziga talabchangligi, sodda dilligi, va rostgoʻyligi, mehnatsevarligi, xarakteridagi magʻrurligi va qatiʼyatligi soʻngi yillarda yanada yaqqolroq koʻzga tashlanmoqda. Ota-onalar oʻz farzandining kelajagi uchun javobgandir va uning yetuk va barkamol boʻlib yetishishda asosiy rolni oʻynaydi. Bu jarayonda muxim omil boʻlib ota-onaning shakllari hisobga olinadi.

Oʻz farzandi bilan oqilona, dustona va samimiy munosabat oʻrnata olgan ota-onalar farzandi uchun sevimli ishonchli inson sifatida idrok qilinadi. Shuning uchu ota-onaning oʻz farzandi bilan hissiy munosabatni toʻgʻri oʻrganib olishi ular oʻrtasidagi munosabatga jiddiy taʼsir etib, obruli mavqiyeni egallab olishga imkon beradi. Aynan shu maqsadga erishilgandagina ota-onalar farzandlarining har tomonlama barkamol, sogʻlom boʻlishida yetakchi shaxslar boʻla oladi deyishimiz mumkin.

Demak yoshlarning o'z ota-onalari bilan psixologik jixatdan yaqin bo'lishlari, «sevimli ota - ona», «obro'li ota - ona», «deferont mavqyeidagi ota – ona» bo'lishi oilada farzandlar tarbiyasi va kelajagiga katta ta'sir etadi.

Ota – onaning farzandini nigohida o'z obro'sini yarata olishi va mustahkamlay olishi, uning ko'z oldida bir fikrda turuvchi, aql – farosatli, yumshoq ko'ngilli bo'lishi ularning obro'ga ega bo'lishidagi dastlabki bosqichdir. Ota – onaning bolaga talabchanglik xissi va uning yoshi, jinsi va individual xususiyatlarini xisobga olgan holda amalga oshiriladi. Lekin nota – onaning bolasining shaxsiga o'ta jiddiylik bilan yoki aksincha xazilakom tegajog'lik bilan munosabatda bo'lish esa ular o'rtasidagi psixologik to'siqning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Natijada ular o'rtasida samimiy munosabat o'rnatib olish qiyinlashadi.

Ota – onaning oilada bajarayotgan rollari ulardan ko'pchilika funksiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lib, bevosita turli mazmundagi xayotiy va turmush masalalarini yechish bilan bog'liq. Ayniqsa bu o'rinda otaning oila boshlig'i obro'si «xokimligi» darajasi oilada bolalar tarbiyasiga ta'siri o'tkazadi. Avtoletar ota o'z xoxoshi va bolalarining itoatli bo'lishiga erishishi mumkin. Lekin bu itoatkorlik yuzaki xarakterga ega bo'lishi mumkin. Bunday holatda farzandlar otasi tomonidan nazorat salgina pasayib qolganini sezib qolsalar o'zlarining xatti – xarakatlarini o'zgartirishlari mumkin. Ammo oila har birining namunasi rivojlangan oila degani o'ziga xos ijtimoiy guruxini darajasiga yeta olsagina bunday chekinishlar bo'lmaydi. Axilligi, bir – biriga samimiy do'stona munosabat, bir – birini e'zozlash kabi fazilatlarga ega bo'lgan oila esa shakllangan guruh bo'la olmaydi va otaning qattiq qo'lligi har bir masala va muammoga jiddiylik bilan yondashishni jiddiy to'siq deb qabul qiladilar hamda farzandlarning o'z otalari bilan til topishlari qiyinlashadi. Oilada otaning roli mavqyeining o'zi uning ko'pgina vazifalarni bajarish kerakligini taqozo etadi. Bu esa oilaning kelgusihayoti va faoliyatini belgilab beradi. Farzandlarning ota so'ziga itoat etib, bo'ysunishi unga yuksak shionchning namunasi bo'lishi mumkin, lekin shu bilan birga ularning tashabbusi, mustaqil fikrlashi uchun

to'sqinlik qilishini esdan chiqarmaslik kerak. Otaning oiladagi, ko'cha kuydagi obro'si farzandalri uchun o'ta muxim, murakkab masalalarni to'g'ri yecha olishi mobaynida ko'rinadi. Shundagina farzandlar o'z otasini «obro'li shaxs» siftida qabul qiladilar.

Oilada ota obro'li shaxs sifatida har qanday kichik yoshdagi bolalar oilada farzandlarini ko'z oldida o'zini ko'rsata olishi kerak. Bolalar oilada ota obro'sini birinchi navbatda uning egallab turgan mavqeiga belgilaydilar. Bu yerda otalik rolini bajarayotgan obro'si hisobga olinadi, shaxsning obro'siga esa hisobga olinmaydi. Bunda otaning ko'pgina holatlarda nafaqat farzandga tegishli masala, balki butun oilaga ham taalluqli masalalarni etilishini nazarda tutish joyizdir.

O'smir yoshdagi bolalar esa otasiga, uning obro'siga boshqacha baho bera boshlaydilar. Ota tomonidan ham ushbu munosabat sezila boshlaydi. kichkina yoshdagi bolalarga nisbatan o'smirlar o'rtoqlari, o'qituvchilari va boshqa odamlarga ham o'z shaxsiy nuqtai nazaridan yondashibmunosabat o'rnatadilar. Agar bu yoshda ota o'smirlarga tegishli bo'lgan shaxsiy muammolarni va uni qiziqtirgan boshqa faoliyat turlari sohasidagi masalalarni va uni qiziqtirgan boshqa faoliyat turlari sohasidagi masalalarni to'g'ri hal etishga o'z kuchi, e'tibori, vaqtini ayamay sarf etsa, unda bunda yota o'smirning ko'z oldida haqiqiy obro'ni qozonishi mumkin.

O'smirin yoshdagi bolalarning diqqatitotasi shaxsiga, uning qadr – qimmatini tushunishga qaratilgan bo'ladi. Ayrim oilalarda bu yoshdagi bolalar ko'zida ota obro'si bo'lsa boshqalarida esa obro'li bo'lishi mumkin. chunki otalarning jamiyatga tutgan o'rni, ayniqsa qarindosh – o'rug'lar, mahallada, ish joyida xamkasblarining bahosi ham xisobga oilna boshlaydi. O'smirinning ota – onasi obro'sibo'lsalar ularga bog'lanish ham, o'ziga bo'lgan ishonch ham yanada ortadi. Albatta, ota – ona o'z farzandlarining ularning yoshiga qarab extiyojlarini tushinib, ularning shaxsini ham hurmat qilsalar, nafaqat ular bilan bo'lgan munosabatlar balki boshqa odamlar bilan munosabatni ham ijobiy ravishda o'rната oladilar.

O'smirin yigit va qizlar o'zlarining ota va onasini ardoqlay boshlaydilar, ularni samimiy hurmat qilib, xayrixoxlik bilan mehribonlik ko'rsatish orqali munosabatda bo'ladilar. Vaxolanki, yuqorida ko'rsatilga fazilatlar kichik va o'smir yoshdagi bolalar uchun diyarli xos bo'lmaydi.

Demak, o'zbek oilalarida ota – ona va farzandlar o'rtasidagi munosabtni oqilona tashkil etish orqali oilalarni mustaxkamlash ularni baxtli va farovon yashashlarini ta'minlash doimo dolzarb masaladir.

Ma'lumki, mustaqillik yillarida oilalarning ma'naviy asoslarini yuksaltirishda mahallaning roli toboro oshib bormoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek «... Hozirgi vaqtda oilalarning haqiqiy moddiy ahvolini ularning ma'naviy va madaniy qiziqishlari doirasini mahalladan ko'ra yaxshiroq boshqa tizim yo'q» [8:25].

Haqiqatdan ham bu soxa bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz, oila ma'naviyatining yuksaltirishni quyidagi yo'nalishlar asosida amalga oshirish zarurligidan dalolat bermoqda:

1. Oilaning moddiy farovonligi ko'p jixatdan, yuqorida ko'rsatilganidek, oila iqtisodiga, undagi sarf – xarajatlarning to'g'ri va oqilona ravishda amalga oshirilishiga bog'liq. Omillarning hisoblab chiqishicha xonadonlarimizda isrof qilinayotgan bir kunlik non maxsulotlari 400 kilogramini tashkil etarkan Shaxardagi toza suvini 21 % ishlatilmasdan qavurlarda oqib ketarkan. ko'p qavatli binolarning umumiy eshiklari yaxshi yopilmasligi tufayli bir sutkada bekorga sovurilayotgan issiqlikning o'rnini to'ldirish 98 kilogram ko'mir zarur bo'larkan.

Mazkur holatlar fuqorolarimizda hali ham iqtisodiy taffakurning yetarli darajada shakllanmaganidan dalolat beradi. Shu boisdan ham mahallada bunday isrofgarchilik ko'rinishlariga barxam beri shva odamlar ongiga tijamkorlik, xisob – kitob bilan ro'zg'or yuritish hamda amaliy maqsadga yo'naltirilgan tadbirlar dasturi ishlab chiqishi ham bu masala ma'naviyatining muhim shakli sifatida qo'yishi lozim.

2. Mahalla har bir oila har bir shaxs bilan imkoniyati darajasida ish olib borish uchun ma'naviy salohiyatga va huquqiy imkoniyatga ega bo'lgan maskan hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotining qiyinchiliklari va ziddiyatli xarakteri ayrim oilalarda sarosimalik holatlarini tushkunlik kayfiyatlarini keltirib chiqarmoqda va bunday vaziyat ko'pchilik xollarda turli janjallarga oxir-oqibatda ajralishlarga sabab bo'lmoqda. Boshqa tomondan, ma'naviyatimizning susayib ketishi va xalqimizning asrlar davomida takomillashgan urf-odatlar, ahloq-odob tushunchalari, ro'zg'or yuritish rasm-rusmlardan, yoshlarning bir qadar bexabarliklari, ularda oila bo'lib yashash ruhiyatining talab darajasida shakllanmaganligiga hamda ayrim kishilarini shaxsiy «meni»ga o'ralashib qolishi ham oilalarni buzilishiga olib kelmoqda.

Ajralishlar oila qo'rg'onini vayron qilish bilan birga, bolalarga katta ma'naviy jarohat ham yetkazadi. Bunday ko'ngilsiz holatlarni oldini olish maqsadida mahallalarda jamoatchilik fikrini o'rganish markazining xodimlari bilan birgalikda yoshlarni nikohga tayyorlash va nikohni bekor qilishni oldini olish bo'yicha foydali suhbatlar o'tkazish, shu ishga aloqador bo'lgan tegishli soxa mutaxassisleri bilan uchrashuvlar tashkil qilish zarur bo'ladi. Zero, turli oilaviy nizomlar, jonjallar, qo'ydi-chiqdilar sud idoralarida emas, balki mahalla doirasida muhokama qilinib, ijobiy xal etishsa, bir tomondan mahalla obro'-e'tibori oshib, boshqa tomondan oilaning ortiqcha sarsongarchiliklariga chek qo'yilgan bo'lar edi.

3. Mustaqillik yillarida mahallada kishilarni odob-axloqqa o'rgatish, ularda urf-odatlar, turli qadryatlarni sindirish, ilg'or udumlarni keng yechish borasida axloqiy an'analar qaror topdi. Hozirgi kunda mahallalarda oilalarni yuksak ma'naviyatli qadriyatlarga sodiqlik ruxida tarbiyalashda ma'lum tajribalar to'plandi. Jumladan, aksariyat mahallalarda «Namunali oila», «Eng ibratli kelinchak», «Namunali uy», «Namunali ona», «Eng ibratli kelinchak», «Namunali uy bekasi», «Namunali hovli» kabi tanlovlarni o'tkazish va ularning g'oliblarini taqdirlash oiladagi ma'naviy muxitning yanada yuksalishga va oila salohiyatining yaxshilanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, ota-onalarga ayniqsa bo'lajak ota-onalarni oila hayotining murakkab, turli-tuman muloqat ildizlari, sir-asrorlari haqida tegishli ma'lumotlar bilan qurollantirmasdan turib sog'lom avlodning tuzailishi va tarbiyalanishida sezilar natijalarga erishish qiyin. Shu boisdan ham oilalarni xalqimizning o'ziga xos milliy, mintaqaviy, umumbashariy qadriyatlari, hozirgi zamon oilasining ichki ma'naviy psixologik, pedagogik tibbiy, ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlari, ota – onalarning sog'lom avlodning tug'ilishi va tarbiyasi uchun davlat va jamiyat oldidagi burchga doir masalalar bilan tanishtirish shubxasiz, kelgusida mustaxkam va baxtli oilalarni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy – uslubiy pedagogik adabiyotlarga tayangan holda yosh oilalarni hamda oilaviy turmushga tayyorlanayotgan yigit va qizlarni oilaviy hayotning ba'zi bir chizgilari bilan tanishtirishga o'tamiz:

1. Hozirgi zamon oilasi. Oilaning tarixiy shakllari, hozirgi zamon oilasi uning muammolari. Oila to'g'risida davlat g'amxo'rligi, oilaga ijtimoiy yordam kafolatlari.

2. Bo'lajak ota va ona olami, otav a ona jamiyatining to'laqonli fuqorosi sifatida.

3. Oila hayotining iqtisodiy asoslari oila mablag'i va uning manbalari, oilamablag'ini rejalashtirish, oilaning sarf-xarajatlari, oilada tadbirkorlik va tejamkorlik.

4. Oilaviy hayotining huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi, ota va onaning burch va huquqlari. nikoh va undan o'tish shartlari. Sog'lom farzandni vujudga pestirish. otav a onaning bo'rch sifatida.

5. Oilaviy hayotining psixologik asoslari. Inson ruxiyati, faoliyati, Oila ma'suliyati oilada nizom, janjali vaziyatlarning oldiniolish yo'llari. Ota ona va farzandlar muloqat .

6. Oila hayotining pedagogik asoslari. Oilaning farzand tarbiyasidagi:barkamol insonni tarbiyalash, sog'lom avlodni shakllantirish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik tarbiyasi, farzandni kasb – hunarli qilish va

hokozo, oila tarbiyasi vositalari va usullari. Farzand tarbiyasida hamkorlik namunali oilalar tajribasini o'rganish va yechish.

7. Oila hayotining gigiyenik asoslari, sog'lom ota, ona va farzand. Inson salomatligini ta'minlovchi oilalar.

Sog'lom avlodni yaratishda tibbiy ko'rikdan o'tish zarurligi

Galdagi vazifa mahala xududida «Oila saboqlari» mashg'ulotlarini «Oila mahalla va maktab hamkorligi markazi»da «Ota-onalar uslubiyati» faoliyatini tashkil etib, yoshlarga oilaviy hayot sinovlarini muntazam ravishda o'rnatishdan iboratdir.

2.2. - § Tajriba-sinov natijalari

O'zbek oilalarida ota-ona-farzandlar munosabatlarini o'rganish maqsadida Samarqand viloyati Urgut tumani Ravotxo'ja qishloq hududidan 73 ta to'liq oila hamda Samarqand shahar Siyob tumani hududidagi Termiz, Sadridin Ayniy kuchalarida istiqomat qilayotgan 71 ta to'liq oila tanlab olindi. Bunda tanlab olingan oilalarda ota-onalarning ma'lumotlariga, hayotiy tajribalariga, ishlab chiqarishda mehnat bilan shug'ullanishlariga e'tibor berildi.

Ma'lumki, o'quvchi shaxsining intellektual salohiyat kurtaklari oilada, o'zaro munosabatlar ta'sirida yuzaga keladi. Bugungi kunda ushbu masalaga qay yo'sinda yondashish ma'qul? Ushbu savolga bizning amalga oshirgan tadqiqotimiz javob beradi. Tadqiqotning vazifalaridan biri o'zbek oilalaridan biri ota-ona va farzandlari o'zaro munosabatlarining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlarini o'rganishdan iborat. Bu vazifani bajarish uchun biz Ye.Shefer tomonidan taqdim etilgan «Ota-onalarning ota-onalik roliga» ustanovkasi va munosabatlar metodikasidan foydalandik. Biroq, bu yerda biz o'rgangan tadqiqotimiz natijalarini malakaviy ish hajmiga moslashtirgan holda ko'rib chiqamiz. Bunda ota-onalarning farzandlariga o'z fikrlarini gapirib olish imkoniyatlarini hamda ularga o'zaro tenglik huquqlarini berishi, ularning faoliyatini rag'batlantirishi ular bilan do'stona munosabatlar o'rnatishi yoki bo'lmasa, ular bilan bo'ladigan muloqatdan qochishi kabi holatlar aniqlandi.

Bolaga nisbatan munosabatda demokratiklikning yo'qligi demokratik:

№	Guruxlar munosabat	Shahar		Qishloq	
		Ota	Ona	Ota	Ona
1	Bolaga o'z fikrini gapirib olish imkoniyatini berish	17.87	18.58	17.74	19.14
2	Ota-onalar va bolalarning tyengligi.	18.57	17.94	17.24	18.47
3	Bola bilan bo'ladigan	17.11	17.24	17.38	18.20

	muloqatdan qochish				
4	Bola faolligini rivojlantirish	18.24	19.20	18.80	19.31
5	Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi do'stona munosabatlar	17.54	19.12	12.44	19.47

Ushbu jadvalda ota-onalarning bolaga munosabatida demokratikning yo'qligi, yoki bo'lmasa demokratik darajalari ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Bunda ko'rsatkichlarning past bo'lishi ota-onalarning o'z farzandi bilan bo'ladigan o'zaro muloqot jarayonining muntazamligi bilan o'zaro munosabatida tenglik va demokratiyaga amal qilmasligini yuqori bo'lishi, ularni demokratlikka ustanovkalarining ustunligi haqida ma'lumot beradi.

Jadvalda onalarning otalarga nisbatan ayniqsa qishloq onalarining farzandlarga o'z fikrlarini gaprib olish imkoniyatini berishligai aks etmoqda. Bu ularga bola bilan o'zaro muloqot jarayoninig muntazamligi bilan bog'liqdir. Shu sababli ham ushbu o'zaro muloqot orqali onalar farzandlaridagi mustaqil fikrlash doirasini, aql darajalarini biron-bir masala yuzasidan mulohaza qilish, xulosa va hukm chiqarish kabilarni anglash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shu bilan birga bu qishloq oilalarida bolalar ko'proq murakkab va ko'p kishilar doirasining kengligi bilan asoslanadi. Biroq shaharlik onalarning qishloq onalariga nisbatan farzandlarida u darajadagi imkoniyatini his qilmayotganligi kuzatilmoqda.

Ota-bola munosabatlarida muloqot jarayonini shahardagi sharoit, muxit va zamon talablari kuchaytirmoqda. Qishloq otalarining esa o'z ishlari va tashvishlari bilan band, bo'lib, bola bilan muloqot qilishga vaqt ajratmayotganliklarini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli ham ular farzandining aqliy darajasi nimaga qodir ekanligini anglab yetmaydilar.

Shahar otalari hamda qishloq onalari farzandini o'ziga moslashishini kutib o'tirganidan ko'ra o'zlari ularga moslashishni, shuningdek o'z hatti-harakatlari bilan farzandi hurmatini qozonishini, farzandini tez-tez yon bosishga, kelishishga murosaga majbur qilmaslikni, ular bilan ma'lum bir chegarada tyeng munosabatda bo'lishini, farzandiga qanday yashashni hohlasa shunday haququq berishni lozim ko'rmoqdalar. Bolalarga bunday o'zaro tenglik huquqlarini berishini biz ota- onalarning psixologik bilimlarining yuqoriligi bilan belgiladik.

Ma'lumki, erkaklar qishloq sharoitida ko'proq jismoniy kuch talab qiladigan ishlarda, shaharda esa jismoniy bilan birga ko'proq aqliy faoliyat ko'rsatishi lozim bo'lgan davlat ishlari bilan band bo'ladilar. Shuningdek, barcha sohalaridagi yangi texnologik bilimlar shaharda tezroq amalga oshiriladi. Bular o'z navbatida otalarga muloqot psixologiyasini, psixologik yondashuv uslublarini o'zlashtirish imkonini beradi. Buning natijasida ularning tafakkuri, dunyoqarashi zamon talablari darajasida kuchaya boradi. Biroq qishloq onalarining bolalar bilan ko'proq o'zaro munosabatda bulishi ulardagi barcha imkoniyatlarni anglashini va ular o'rtasida hissiy yaqin o'zaro munosabatlar tiklanishini ta'kidlaydi, natijada ular tez-tez topishib keta oladilar. Shu sababli ham ular qo'rqmasdan tinchlik huquqini berishga intilganliklarining guvohi bo'lmoqdamiz. Shaharda esa bu holat boshqacharoqdir onalar bolalari bilan kamroq munosabatda bo'lganliklari sababli, ularda o'zaro tushunmovchilik holatlari tez- tez uchrab turadi. Shu sababli ham bu onalar o'z obro'sini saqlab qolish uchun o'zining onalik rolini ustunroq qo'yishga intiladilar.

Bola faolligini ko'proq qishloqlik ota-onalar, ayniqsa onalar otalarga nisbatan rag'batlantirishlari kuzatilmoqda. Ya'ni ular bolaga hayotga vaqt ko'p narsalarni o'zlashtirish imkonini berishni, shu sababli uni ertaroq vaqt bilan hisoblashishga o'rgatish, bola muvaffaqiyatga erishish uchun kuch sarflash lozimligini, shuning uchun u doimo biron-bir ish bilan mashg'ul bo'lishligini, bola bilan norasmiy munosabat uning kelajak hayotida asqotishini tushuntirish lozim deb hisoblaydilar. Bu bola tarbiyasida ta'sir qiluvchi kuchlarning

ko'plikni hamda ota-ona va farzand o'rtasida o'zaro munosabatlarga xalaqit qiluvchi ijtimoiy omillar ta'sirining kamligi bilan bog'liq.

Onalar farzandlari bilan o'zlarini baxtli his qilayotganliklari, farzandlari bilan xazillashib turishi oiladagi ko'p muammoni yengillashtirishi hamda ularning maslahati va nasixatlarini so'zsiz qabul qilishligi, bola bilan o'z kechinmalari haqida suhbatlashish ularning maslahati va nasixatlarini so'zsiz qabul qilishligi bola bilan o'z kechinmalari haqida suhbatlashish ularning kattayishini tezlashtirishligini bildirmoqda. Bu albatta bolalar bilan o'zaro muloqot jarayonining kuchliligi bilan bog'liq bo'lib, ona-bola o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro tushunish va o'zaro hurmat darajalarini yuqoriligini ifodalamoqda.

Qishloq otalarida esa bola bilan kam muloqotda bo'lishlik, yondashuv uslublarini bilmaslik, psixologik bilimlarning yetishmasligi bola tarbiyasida ta'sir ko'rsatuvchi kuchlarni ko'p deb qabul qilinishi, bolalar qiziqishlariga e'tiborsizlik, ular bilan o'rtoqlashmaslik, fikrini inobatga olmaslik kabi holatlar kuzatilmoqda. Bola bilan bo'ladigan muloqotdan qochish holati esa ko'proq qishloqlik ota-onalarda shaharlik ota-onalarga nisbatan kuchliroq ifodalangan.

Bizning o'smir yoshlarimiz ommasidagi hayotga munosabatlarini aniqlash maqsadida o'tkazgan tadqiqot natijalarida quyidagi ma'lumotlar olindi. Ular oilalaridagi shaxslararo munosabatlarida hissiy bezovtalik natijasida vaqti-vaqti bilan uydan chiqib ketish istagining yuzaga kelishi aniqlandi. Bunday hisning yuzaga kelishi qishloq o'smirlarida (4,4) shaharlik o'smirlarda (2,2) nisbatan ikki barobar hamda jinsiy xususiyatlariga ko'ra o'g'il bolalarda (4,4) qizlarda (3,5) nisbatan ko'proq ekanligi kuzatildi.

Buni qishloqda mehnatning og'irligi, sharoitni yetarli emasligi, shuningdek zamon talablaridagi barcha imkoniyatlarni yo'qligi kabilar bilan izohlash mumkin.

Oilada ota-ona va farzandlar o'rtasida munosabatlarni yaxshilashda bolalarning kundalik rejimi va ovqatlantirish haqida qayg'urishning birgina o'zi kifoya qilmaslik olib borgan izlanishlar jarayonida namoyon bo'ldi. Bolalarda

sogʻlom turmush tarzi haqida toʻgʻri tasavvurlarni shakllantirishda kattalar, ota – onalarning shaxsiy namuna boʻlishi juda muximdir.

Bolalar ota-onalariga tahlid qilishlari sababli, ularni chekmaslik, ichmaslik, narkotik moddalarni isteʼmol qilmaslikka davat etish boʻyicha maʼnaviy huquqga ega boʻlishlari uchun ularning oʻzlari bunday zararli odatlardan oʻz vaqtida xolos boʻlishlari lozim. Ushbu fikrlarimizni 18 yoshdan 22 yoshgacha boʻlgan 220 ta yigit va qizlarga bergan «Ota-onalaringizdan nimalarni oʻrganishni xohlar edingiz» savolga olingan natijalar tasdiqlamoqda. Javob quyidagicha – 73 % mehnatsevarlikni, 51 % qatʼiyatlik va maqsadga yoʻnaltirilganlikni, 34 %

«Ota onalarda nimalarni olishni istamagan boʻlar edingiz» degan savolimizga 1 % yigit-qizlar aroq ichish, chekish, yomon soʻzlarni ishlatmaslikni, narkotik maxsulotlarni istimol qilmaslik kabi zararli odatlarni olishni xohlamaganliklarini bayon qildilar.

Bizning oʻsmir yoshlarimiz oʻz oilasidagi hayotga munosabatlarini aniqlash maqsadida oʻtkazgan tadqiqot natijalarida quyidagi maʼlumotlar olindi. Ular oilalardagi shakllararo munosabatlarida hissiy bezovtalik natijasida vaqti-vaqti bilan uydan chiqib ketish istagining yuzaga kelishi aniqlandi. Bunday hisning yuzaga kelishi qishloq oʻsmirlarida (4,4) shaharlik oʻsmirlarda (2,2) nisbatan ichki barobar hamda jinsiy xususiyatlariga koʻra oʻgʻil bolalarda (4,4) qizlarda (3,5) nisbatan koʻproq ekanligi kuzatildi.

Buni qishloqda mehnatning ogʻirligi, sharoitni yetarli emasligi, shuningdek zamon talablaridagi barcha imkoniyatlarini yoʻqligi kabilar bilan izohlash mumkin.

Oilada ota-ona va farzandlar oʻrtasida munosabatlarni yaxshilashda bolalarning kundalik rejimi va ovqatlantirish haqida qaygʻurishning birgina oʻzi kifoya qilmasligi olib borgan izlanishlar jarayonida namoyon boʻldi. Bolalarda sogʻlom turmush tarzi haqida toʻgʻri tasavvurlarni shakllantirishda kattalar, ota-onalarning shaxsiy namuna boʻlishi juda muhimdir.

Bolalar ota-onalariga tahlid qilishlari sababli, ularni chekmaslik, ichmaslik narkotik moddalarni iste'mol qilmaslikka da'vat etish bo'yicha ma'naviy huquqga ega bo'lishlari uchun ularning o'zlari bunday zararli odatlardan o'z vaqtida xalos bo'lishlari lozim. Ushbu fikrlarimizni 18 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan yoshlar ichida.

Xulosa

Mustaqillik yillarida jamiyatimizning asosi bo'lmish oila institutining mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga respublika hukumati alohida e'tibor berib kelmokda.

Mustahkam oilani shakllantirishda, oilalarda sodir bo'ladigan turli-tuman nizolar, janjallarni oldini olishda mahallaning o'rnini hyech bir narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. Chunki, o'z-o'zini boshqarish organi-mahalla xalqning, oilalarning dardini anglovchi, unga yaqindan yordam beruvchi sifatida hozirgi kunda ham kelajakda ham o'z faoliyatini amalga oshiraveradi.

Prezident I.A.karimov ta'kidlaganidek, «Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi».

Ma'lumki, inson shaxsining shakllanishida shaxslararo munosabat, o'zaro fikr almashish, hamkorlikning ahamiyati katta.

Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi iliq, do'stona munosabatlar ularning jamiyatda o'z o'rnini tepishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-ona va farzandlar o'rtasida turli sabablarga ko'ra doimo uchrab turadigan nizo (ziddiyat)larni kelib chiqish sabablarini o'rgandik va quyidagi xulosalarga keldik.

1. Ota-onalarning farzandlar ichki dunyosini tushunmasliklari turli ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Ota-onalar farzandlarining ruhiy xususiyatlari haqida yetarli darajada bilimlarga ega emasliklari tufayli ular bilan hisoblashmaydilar.

2. Ko'pchilik oilalarda bolalar tarbiyasida avtoritar uslubni qo'llashlari tufayli ba'zi hollarda ziddiyatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

3. Ota-ona va oilaning kattalari bilan nizolarning kelib chiqishi bolalarda o'z-o'zini adovat baholashni keltirib chiqaradi.

4. Ota-ona va farzandlar munosabatlarida ziddiyatlarni vujudga kelishi ota-onalarning chekish, ichish, narkotik moddalarni iste'mol qilishlari kabi odatlar bilan bog'liq.

5. Bolalarda sog'lom turmush tarzi haqida to'g'ri tasavvurlarni shakllantirishda kattalar, ota-onalarning shaxsiy namuna bo'lishiga erishish sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nizolarni kamayishiga olib keladi.

6. Ota-onalar o'z farzandlarini ma'naviy boy, teran fikrlovchi, mustaqil ish yurituvchi qilib tarbiyalashlari hamda tengdoshlari va do'stlari orasida ularda sardorlik xususiyatlarini shakllantirishlari uchun bolaning faolligini rag'batlantirishlari, o'z fikrlarini ifoda etishlari uchun imkoniyatlar berishlari, ular bilan o'zaro tinchlik aloqalarini, do'stona munosabatlarni o'rnatishlari muhim ahamiyatga egadir.

7. O'zbek oilalaridagi otalarga farzandlari bilan muloqat jarayonini kuchaytirishlari, ularning qiziqishi va intilishlariga e'tibor berishlari, onalarga esa farzandlariga o'zaro tinchlik huquqlarini berishlari, ular o'rtasida ishonchli o'zaro hissiy munosabatlariga yordam beradi.

8. Oila a'zolari o'rtasida samimiy munosabatlarni shakllantirish va yuksaltirishda uning moddiy, ma'naviy, pedagogik-psixologik, gigiyenik asoslariga e'tiborngi kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – Toshkent: O'zbekiston, 2003. 36 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq 1998. – 19-30 b.
3. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – Toshkent: Sharq 1998. – 32-64 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mustahkam oila yili davlat dasturi to'g'risida»gi Qarori // «Ma'rifat» gazetasi 2012 yil 29 fevral.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sog'lom avlod davlat dasturi to'g'risida»gi qarori // «xalq so'zi» gazetasi, 2000 yil, 16 fevral.
6. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqi, 1997 yil 29 avgust // Barkamol avlod– O'zbekiston taraqqiyotining poydevori Toshkent: Sharq 1998. 3-19 b.
7. I.A.Karimov Hozirgi bosqichda demokratik isloxlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari // «Ma'rifat» gazetasi. 1996 yil 31 avgust.
8. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» - Toshkent: Ma'naviyat. 2008 – 174 b.
9. Karimov I.A. Oila faravonligi – milliy faravonligi // ma'rifat, 1997-10 dekabr.
10. Abdulla Avloniy. «Turkiy guliston – yoxud axloq». «Avesto» - Toshkent: Sharq 2002.,
11. Abdurauf Fitrat. Oila Toshkent «Ma'naviyat», 1998. 8-10, 35 b.
12. Azarov Yu.P. «Oila pedagogikasi» - Toshkent: O'qituvchi, 1988 – 272 b.

13. Ansupov A.Ya., Shipilov A.I. «Konfliktologiya» Darslik – SPB: Piter, 2007. – 496 b.
14. Alqarov I.Sh., Mamatqulova R., Norqulov N.D. «Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi». Toshkent: O'qituvchi, 2009 – 140 b.
15. Alisher Navoiy «Mahbub-ul Qulub» asarlar 13-t.- Toshkent, 1966.
16. Dasxodjayeva A. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish // xalq ta'limi jur. 2008. №6-115-117 b.
17. Ergasheva Sh. Oilaviy munosabatlarda ota-ona ibрати // xalq ta'limi, 2008. № 2 – 158-160 b.
18. Egamberdiyeva G. Rilaviy qadriyatlar jamiyatning negizi sifatida // xalq ta'limi jurnali. 2008 № 6 109-112 b.
19. Haydarova H. O'qitishda an'anaviy merosimiz durdonalarida foydalanish // O'qitishning pedagogik-psixologik asoslari mavzusidagi konferensiya materiallari – Buxoro 2002 69-70 b.
20. Karimova V. «Oila psixologiyasi». – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2007. – 200 b.
21. Mamasabitova F. Ota-onalarning farzandlariga namuna bo'lishlarining ahamiyati xalq ta'limi jurnali 2008, №6 -112-115 b.
22. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. Toshkent: O'qituvchi 1994 172 b.
23. Musurmonova O. «Oila ma'naviyati – milliy g'urur» Toshkent: O'qituvchi, 1999. – 77-78 b.
24. Najmiddinova K.U. Oila tarbiyasida ilmiy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. Falsafa fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya Avtoreferati – Toshkent: 2006 22 b.
25. Norqulov X.D. «Oilada yoshlarni vayronkor g'oyalardan himoya qilishning ijtimoiy-pedagogik asoslari // Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish sharoiti yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash» shakl va metodlari – Toshkent, 2001 – 115-118 b.

- 26.«Oila, mahalla, maktab hamkorligi» Konsepsiyasi // «Ma’rifat» gazetasi, 1993 yil
- 27.«Oila, mahalla, maktab hamkorlik markazi»ning namunaviy Nizomi // «Ma’rifat» gazetasi, 2008 yil 25 iyun.
- 28.Qosimova A.Oila ijtimoiy tarbiyaning obyekti sifatida // xalq ta’limi jurn., 2009. №6-91-93 b.
- 29.Qadimiy hikmatlar - Toshkent: Adabiyot va san’at 1987.,
- 30.Razzoqov A. Oila iqtisodiyoti va sog’lom avlod masalalari // o’zbek oilasining iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik muammolari.
- 31.Safarov. O. M.Mahmudov. Oila ma’naviyati. Toshkent «Ma’naviyat», 1998. -20-21 b.
- 32.Satir V. Вы и ваша семья. – М.: Аспект проесса 2001. – 460 s.
- 33.Xoliqov D.Oilashunoslik ilmi-oila muammosi yechishi ekanligi // xalq ta’limi jurn. 2000. №5 – 111-112 b.
- 34.Xasanboyeva O., Xoliqov D. va boshqalar. «Oila pedagogikasi» Darslik – Toshkent: Aloqachi, 2007. – 384 b.
- 35.Shoumarov G’.B. «Oila psixologiyasi» Toshkent. «Sharq», 2007. – 296 b.
- 36.Shamsiyev U.B. Oilada maktabgacha yoshdagi bola shaxsi o’zini-o’zi anglashini ijtimoiy – psixologik omillari. Psixologiya fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. – Toshkent, 2010. – 23 b.
- 37.WWW. Ziyonet. UZ.
- 38.WWW. referat. UZ.
- 39.WWW. Google. UZ.